2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 136 (1735), 2026-yil 7-iyul, seshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

IORDANIYA BILAN SAMARALI HAMKORLIKNI FAOLLASHTIRISH MASALALARI MUHOKAMA QILINDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-iyul kuni Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Bosh vaziri o‘rinbosari, tashqi ishlar va muhojirlar masalalari bo‘yicha vaziri Ayman Husayn Safadiy boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

Suhbat avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston bilan Iordaniya o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

O‘tgan yili Samarqandda oliy darajada o‘tgan sermahsul muzokaralar ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi sahifa ochgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Erishilgan kelishuvlar doirasida joriy yilda parlamentlararo do‘stlik guruhlari tuzildi, Hukumatlararo qo‘shma komissiyaning ilk yig‘ilishi o‘tkazilib, Ishbilarmonlar kengashi ta’sis qilindi, shuningdek, havo qatnovlari yo‘lga qo‘yildi.

Kelgusida siyosiy muloqotlarni faollashtirish, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamda madaniy-gumanitar sohalarda qo‘shma loyiha va dasturlarni ilgari surishga alohida e’tibor qaratildi.

Shuningdek, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O‘zA

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI QOZOG‘ISTONNING BIRINCHI PREZIDENTINI TABRIKLADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 6-iyul kuni telefon orqali muloqotda Qozog‘iston Respublikasining birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyevni tavallud kuni bilan samimiy tabriklab, unga mustahkam sog‘liq, baxt-saodat va uzoq umr tiladi.

Davlatimiz rahbari Nursulton Nazarboyevning zamonaviy Qozog‘istonning barpo etilishi, Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni ilgari surish hamda O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga qo‘shgan ulkan hissasini alohida e’tirof etdi.

O‘zbekiston bilan Qozog‘iston o‘rtasidagi mustahkam do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro ko‘mak rishtalariga asoslangan ko‘p qirrali hamkorlikning bugun yuqori sur’atda rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘zA

CHO‘LLANISHGA QARSHI KURASHISH VA SHAHARSOZLIKDA EKOLOGIK TALABLAR KUCHAYTIRILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev cho‘llanishga qarshi kurashish va cho‘l iqtisodiyotini rivojlantirish, shuningdek, shaharlarda “yashil shahar” tamoyillarini joriy etish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Iqlim o‘zgarishi, suv tanqisligi, yerlarning tanazzulga uchrashi va cho‘llanish bugun butun mintaqa uchun dolzarb ekologik muammoga aylanmoqda. Bu esa qishloq xo‘jaligi barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi salomatligi va hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimiz hududining qariyb 80 foizi cho‘l va yarim cho‘l maydonlaridan iborat. Yerlarning sho‘rlanishi, qum ko‘chishi, chang bo‘ronlari va garmsellar, ayniqsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlari, shuningdek, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarining ayrim tumanlarida jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Orol dengizining qurishi mazkur jarayonni yanada kuchaytirgan. Qurigan tubda Orolqum cho‘li shakllanib, havoga ko‘tarilayotgan tuz va chang keng hududlarga tarqalmoqda.

Davomi 2-betda

NEFT-GAZ TARMOG‘INI KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORLASH ISHLARIGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev neft-gaz tarmog‘ida navbatdagi kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ishlarining borishi yuzasidan axborot bilan tanishdi.

2026-2027-yillar kuz-qish mavsumida aholi, ijtimoiy soha obyektlari va iqtisodiyot tarmoqlarini energiya resurslari bilan barqaror ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlar ko‘rib chiqildi. Tabiiy va suyultirilgan gaz yetkazib berish, magistral va hududiy gaz tarmoqlarini ta’mirlash, yoqilg‘i zaxiralarini shakllantirish hamda avariya-tiklash brigadalarining shayligini ta’minlash bo‘yicha aniq vazifalar qo‘yildi.

Tabiiy gaz ta’minoti tizimini mavsumga tayyorlash ishlariga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, mavsumgacha magistral gaz quvurlarining 53,7 kilometr nuqsonli qismini almashtirish, kompressor stansiyalaridagi 77 ta gaz haydash agregatini mukammal ta’mirlash rejalashtirilgan.

Davomi 2-betda

Yangi loyiha

YANGI O‘ZBEKISTON: SHIDDATLI EVRILISH VA REAL NATIJALAR MANZILI

“Yangi O‘zbekiston” gazetasining ijodiy jamoasi vodiyning eng so‘lim go‘shalaridan biri — Farg‘ona viloyatida!

Xabaringiz bor, gazetamizda “Yangi O‘zbekiston: shiddatli evrilish va real natijalar manzili!” nomli yangi loyihani boshlagan edik. Ushbu loyiha bilan mamlakatimizda erishilayotgan natijalar tahlili orqali qisqa vaqtda qanday katta tarix yaratilayotganini ochib berishni maqsad qilgandik.

Ushbu loyihada dastlab Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi o‘zgarishlar haqida bir qancha tahliliy maqolalar e’lon qilindi. Ya’ni “Yangi O‘zbekiston” gazetasining bitta soni to‘liq ushbu hududning o‘n yillik taraqqiyot yo‘liga bag‘ishlangan edi.

Loyiha maqsadiga ko‘ra, “Yangi O‘zbekiston” gazetasining ijodiy jamoasi mamlakatimiz bo‘ylab olis qishloq va ovullardagi o‘zgarishlar, shaharlarning yangilangan qiyofasi bilan yaqindan tanishadi. Ziyolilar, yoshlar, faollar va oddiy insonlar bilan suhbatlashib, ularning dil so‘zlariga quloq tutadi. Shu asosda real hayotiy hikoyalar orqali islohotlar ko‘lamini ochib berishga harakat qiladi.

Ayni maqsadda yo‘lga chiqqan ijodiy jamoaning navbatdagi manzili Farg‘ona viloyati bo‘ldi. Ochiq ko‘ngil, samimiy, hunarmand, ishbilarmonlar diyori bo‘lgan viloyatga safarimiz hayajonli taassurotlar va quvonchli voqealarga boy bo‘ldi. Avvalo, xalqimizning yirik ziyolilarini kamol toptirgan xalq bilan samimiy muloqotdan juda katta hayotiy hikmatlarni o‘rgandik. Qolaversa, mamlakatimizdagi izchil islohotlarning ana shu samimiy va daryodil insonlar hayotidagi natijasini ko‘rib ko‘nglimiz faxrga to‘ldi.

Biz quyidagi haqiqatni takror bo‘lsa-da, eslatmoqchimiz: mamlakatimiz Yetakchisining siyosiy irodasi sabab qisqa vaqtda katta tarix yaratildi. Natijada inson qadrini ulug‘lashga qaratilgan islohotlar nafasi olis qishloq va ovullarga ham kirib bordi. Mazkur o‘zgarishlarni farg‘onaliklar ham real vaqt rejimida, o‘z hayotlari misolida ko‘rib, quvonib yashamoqda ekan.

Farg‘ona ahlining farovon hayoti, bugunidan ko‘ngli to‘lib, ertangi kuniga katta rejalar bilan yashayotganiga shohid bo‘lgach qalbimiz ilhomga to‘lib, uni Siz, aziz o‘quvchilar bilan o‘rtoqlashish maqsadida bir nechta tahliliy maqolalar uyushtirdik. Ana shu qizg‘in jarayonda angladikki, bu bitiklar Farg‘onadagi islohotlarning o‘ndan, ehtimol, yuzdan birini ochib berishga qodir ekan. Shu bois, loyihada imkon qadar ko‘proq yo‘nalish, sohani qamrab olishga, ulardagi eng muhim jihatlarni ochib berishga urindik.

Umid qilamizki, Farg‘ona viloyatidagi o‘zgarishlarga bag‘ishlangan bugungi tahliliy maqolalar orqali ushbu zamindagi islohotlar ko‘lamini anglab, ularning quvonchini yurakdan his etasiz.

Tahririyat

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga



VODIY GAVHARI: IQTISODIY O‘SISH VA MA’NAVIY YUKSALISHNING FARG‘ONACHA FORMULASI

Farg‘ona viloyati hokimi Xayrullo BOZOROV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

O‘tgan tarixan qisqa, ammo mazmunan asrlarga tatigulik davrda xalqimiz “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasi va Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek buyuk maqsadlar atrofida jipslashdi. Prezidentimiz rahbarligida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar zamirida, eng avvalo, “Inson qadri uchun” degan ulug‘vor tamoyil mujassam bo‘lib, uning amaliy ifodasini har bir yurtdoshimiz o‘z hayotida, kundalik turmush tarzida topmoqda. Bugun yurtimizning qay bir hududiga bormang, shiddatli bunyodkorlik va yangilanishlarga guvoh bo‘lasiz. Ayniqsa, vodiy gavhari bo‘lmish Farg‘ona viloyatida iqtisodiy yuksalish, investitsiyaviy jozibadorlik va ijtimoiy sohalardagi ulkan o‘zgarishlar milliy taraqqiyotimizning yorqin ko‘zgusiga aylandi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan xalqni rozi qilish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va hududlarni kompleks rivojlantirish g‘oyasi bugun Farg‘ona zaminida yuqori sur’atda yangicha mazmun kasb etmoqda. **Farg‘ona viloyati hokimi Xayrullo BOZOROV** bilan suhbatimiz ana shunday qutlug‘ yangilanishlar, hudud ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘zgarishlar hamda istiqboldagi ustuvor vazifalar haqida kechdi.

— Xayrullo Hayitboyevich, Prezidentimiz joriy yilning 27-28-aprel kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida iqtisodiyot, sanoat, eksport, investitsiya hajmini oshirish bo‘yicha ko‘plab topshiriqlar berdi. Ularning ijrosi qanday amalga oshirilayotgani to‘g‘risida so‘zlab bersangiz.

— Davlatimiz rahbarining viloyatimizga tashrifi bir qarashda oddiy voqeadek ko‘rinadi. Chunki Prezidentimiz joylardagi islohotlar, aholi turmush tarzi, bunyodkorlik ishlari bilan tanishish uchun barcha hududlarga borib turadi. Biroq biz uchun Farg‘ona viloyatiga tashrifning o‘rni, ahamiyati har doim o‘zgacha. Negaki Prezidentimizning 27-28-aprel kunlaridan oldingi tashrifi chog‘ida tilga olingan raqamlar bugunga kelib hayotiy haqiqatga aylandi. Yangi tashrif viloyat rahbariyati, mas’ullari oldiga yanada ulkan vazifalar qo‘ydi.

Oxirgi yillarda Farg‘ona viloyatidagi tizimli islohotlar o‘zining samaralarini ko‘rsatmoqda. Yer va qazilma boyliklar cheklangan bo‘lishiga qaramay, hududda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, xizmatlar va axborot texnologiyalari sohalarida barqaror o‘sish ta’minlandi. Investitsiya va tashqi savdo sohasida ham sezilarli o‘sishga erishildi. Eksport hajmi izchil oshdi, eksportchi korxonalarning soni ko‘paydi.

Birgina misol: davlatimiz rahbarining 2024-yil 16-dekabrdagi Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga doir qaroriga muvofiq, 2025-yilda Quvasoy shahrida “Crown Ceramic” qo‘shma korxonasi tashkil etildi. Yiliga 8 million kvadrat metr keramik granit plita ishlab chiqarishga mo‘ljallangan loyiha 1 trillion so‘mlik mahsulot tayyorlash, 665 milliard so‘mlik qo‘shilgan qiymat yaratish va 35 million dollarlik eksportni amalga oshirish imkoniyatlariga ega. Bu yerda ishlab chiqarilayotgan keramik plitalar sifati va texnik ko‘rsatkichlari bo‘yicha Italiya, Ispaniya va Xitoy mahsulotlari bilan raqobatlasha oladi. Joriy yil yanvar-mart oylarida korxona Qirg‘iziston va Tojikistonga 400 ming dollarlik 80 ming kvadrat metr mahsulot yetkazib berdi.

Davomi 3-betda

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat bo‘ylab 1 milliarddan ziyod daraxt va buta ko‘chatlari ekildi, ko‘kalamzorlashtirish darajasi 2020-yildagi 8 foizdan 2025-yilda 14,3 foizga yetdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 7-iyul, 136-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

CHO‘LLANISHGA QARSHI KURASHISH VA SHAHARSOZLIKDA EKOLOGIK TALABLAR KUCHAYTIRILADI

Boshlanishi 1-betda

Shu bois, Orolbo‘yida yashil qoplamalar barpo etish, saksovul va boshqa cho‘l o‘simliklarini ekish ishlari izchil davom ettirilmoqda. Keyingi yillarda Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektardan ortiq yangi o‘rmonzorlar tashkil etildi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakat bo‘ylab 1 milliarddan ziyod daraxt va buta ko‘chatlari ekildi, ko‘kalamzorlashtirish darajasi 2020-yildagi 8 foizdan 2025-yilda 14,3 foizga yetdi.

Taqdimotda 2026-2030-yillarda cho‘llanishga qarshi kurashish ishlarini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha takliflar ko‘rib chiqildi. Jumladan, 1,27 million gektarda o‘rmon barpo etish va qayta tiklash, cho‘l, tog‘ va tog‘oldi hududlarda 16 ming gektar himoya o‘rmonzorlari yaratish rejalashtirilgan.

Surxondaryo viloyatida 10 ming gektar maydonda yashil qoplamalar tashkil etish, Sirdaryo viloyatining chegaradosh hududlarida 84 kilometrlik “yashil devor” barpo qilish, tog‘ va tog‘oldi hududlarida “terrasa” usulida daraxt va butalar ekish, degradatsiyaga uchragan yerlarda zamonaviy agrotexnologiyalarni sinovdan o‘tkazish taklif qilindi.

Davlatimiz rahbari cho‘l hududlariga faqat ekologik muammo sifatida emas, balki yangi iqtisodiy imkoniyatlar manbai sifatida qarash zarurligini ta’kidladi. Shu maqsadda “cho‘l iqtisodiyoti” yondashuvini rivojlantirish, qo‘riq va sho‘rlangan yerlarda barqaror daromad manbalarini yaratish, cho‘l o‘simliklari urug‘chiligi va ko‘chatchiligini yo‘lga qo‘yish, galofit o‘simliklar yetishtirish, yaylovlar mahsuldorligini oshirish, chorvachilik, ekologik turizm va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhimligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bu borada Qoraqalpog‘istonda cho‘l o‘simliklari ko‘chatxonalarini tashkil etish, Orolning qurigan tubida ilmiy ekspeditsiyalar o‘tkazish, Bobotog‘ hududida zamonaviy usullar asosida pista plantatsiyalarini rivojlantirish, galofit bog‘lar tarmog‘ini kengaytirish taklif etildi. Shuningdek, qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar va urug‘lar bo‘yicha mintaqaviy bank yaratish, xalqaro fondlar va xususiy investitsiyalarni jalb etish masalalari muhokama qilindi.

Taqdimotda Markaziy Osiyo davlatlari bilan ekologik hamkorlikni kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Cho‘llanish va yer degradatsiyasi chegara bilmaydigan muammo ekani, shu bois, unga qarshi kurashishda yagona mintaqaviy yondashuv, ilmiy hamkorlik, ma’lumot almashish va texnologiyalar transferi muhimligi ta’kidlandi.

Shu munosabat bilan cho‘llanishga qarshi kurashish va cho‘l iqtisodiyotini rivojlantirish bo‘yicha Markaziy Osiyo mintaqaviy ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini kengaytirish, “Yashil qalqon” mintaqaviy dasturi doirasida amaliy loyihalarni ko‘paytirish, 2040-yilgacha cho‘llanishga qarshi kurashish strategiyasini ishlab chiqish tashabbuslari ilgari surildi.

Samarqand shahrining tarixiy-madaniy merosi, Buyuk ipak yo‘lidagi o‘rni, xalqaro turizm markazi sifatidagi salohiyati, strategik geografik joylashuvi hamda mavjud suv va transport infratuzilmasini inobatga olgan holda uni Markaziy Osiyoda ekologik barqaror, iqlimga moslashgan va zamonaviy “yashil shahar” namunasiga aylantirish nazarda tutilmoqda.

Shunga muvofiq, taqdimotda shaharlar ekologik barqarorligini ta’minlash bo‘yicha “Green Samarkand” modeli ko‘rib chiqildi.

Mazkur model doirasida 2030-yilga qadar Samarqand shahrida aniq ekologik ko‘rsatkichlarga erishish belgilangan. Jumladan, atmosferaga chiqarilishi mumkin bo‘lgan 51,2 ming tonna zararli tashlamalarning oldini olish, sanoat va energetika obyektlarida chang-gaz tozalash uskunalarini o‘rnatish orqali PM2.5 va PM10 zarrachalarini 50 foizga kamaytirish, qurilish obyektlaridan chiqadigan chang miqdorini 80 foizga, transport vositalaridan chiqadigan ifloslantiruvchi moddalar hajmini 50 foizga qisqartirish, chiqindi poligonlari hajmini 2 barobar kamaytirish hamda aholi yashash punktlarida yashil hududlar ulushini o‘rtacha 30 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Loyihani amalga oshirish uchun Samarqand viloyati hokimligi hamda Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasi ishtirokida “Yashil Samarqand” loyiha ofisi tashkil etiladi. Ushbu ofis shaharsozlik, ekologiya, transport, qurilish, turizm, sanoat va kommunal xizmatlar sohalarida belgilangan tadbirlarni yagona tizimda muvofiqlashtiradi.

Samarqand shahrida maxsus ekologik-shaharsozlik rejimi joriy etilib, yangi quriladigan va rekonstruksiya qilinadigan obyektlar uchun “yashil qurilish” talablari majburiy etib belgilanadi. Bunda energiya va suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish, chiqindilarni saralash va qayta ishlash tizimlarini joriy etish, resurs samaradorligini oshirish hamda ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlarni foydalanishga qabul qilmaslik amaliyoti yo‘lga qo‘yiladi.

Transport sohasida Samarqand shahrini ekologik toza harakatlanish modeliga o‘tkazish nazarda tutilgan. Buning uchun 50 ta zamonaviy katta sig‘imli elektrobus xarid qilish, chorrahalarda 150 ta yangi svetofor o‘rnatish, 2030-yilga qadar jamoat transporti va taksi xizmatini to‘liq elektr transportiga o‘tkazish choralari ko‘riladi. Shu bilan birga, “Park & Ride” tizimi joriy etilib, piyodalar harakati ustuvor bo‘lgan yashil turistik hududlar tashkil qilinadi, shahar markaziga shaxsiy avtotransport kirishi bosqichma-bosqich kamaytiriladi.

Suv va “yashil” infratuzilmani rivojlantirish maqsadida Samarqand shahrida kamida 4 ta, viloyat tumanlari markazlarida esa kamida bittadan sun’iy ko‘l va suv havzalari tashkil etiladi. Samarqand shahrida qo‘shimcha 10 ta yangi favvora qurilib, mavjud favvoralar infratuzilmasi modernizatsiya qilinadi. Shuningdek, umumiy uzunligi 319 kilometr bo‘lgan ariqlar tizimi quriladi va tiklanadi.

Shahar atrofida himoyaviy “yashil” infratuzilmani shakllantirish maqsadida “Yangi katta halqa yo‘li” bo‘ylab uzunligi 102,7 kilometr, umumiy maydoni 3532 gektar bo‘lgan “yashil belbog‘” barpo etiladi. Ushbu belbog‘ chang va issiq havo oqimlarini kamaytirish, atmosfera havosi sifatini yaxshilash, shahar atrofida tabiiy himoya zonasini yaratish hamda iqlimga moslashuv choralarini kuchaytirishga qaratilgan.

Shaharsozlik yo‘nalishida 300 gektar maydonda “Green City Samarkand” hududini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Ushbu hududda turar joy, ofis, xizmat ko‘ratish, turizm va jamoat infratuzilmasi obyektlari xalqaro “yashil shahar” standartlari asosida barpo etiladi.

Sanoat obyektlarining ekologik ta’sirini kamaytirish uchun “yashil sanoat zonasi” hududida eng maqbul texnologiyalar, “Zero Visible Emission” va raqamli ekologik monitoring tizimlari bosqichma-bosqich joriy etiladi. Mavjud sanoat zonalari atrofida “yashil belbog‘”lar tashkil etiladi hamda aholi sog‘lig‘iga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan I va II toifaga mansub 8 ta sanoat korxonasini shahar hududidan tashqariga ko‘chirish choralari ko‘riladi.

Chiqindilarni boshqarish sohasida “Zero Waste Samarkand” tamoyili asosida chiqindilarni saralash, qayta ishlash va poligonlarga yuboriladigan hajmini kamaytirish tizimi joriy etiladi. Noqonuniy chiqindi tashlash holatlarini raqamli xaritalash va foto-videofiksatsiya qilish bo‘yicha axborot tizimi ishga tushiriladi.

Iqlim siyosati yo‘nalishida Samarqand shahri uchun 2030 va 2035-yillarga mo‘ljallangan uglerod chiqindilarini qisqartirish maqsadli ko‘rsatkichlari hamda “Carbon Neutral Samarkand” “yo‘l xaritasi” ishlab chiqiladi. Shuningdek, yashil va iqlim loyihalarini moliyalashtirish uchun “Green Samarkand Climate Finance Facility” platformasi, natijalarni ochiq e’lon qilish va monitoringini yuritish uchun “Green Samarkand Dashboard” raqamli platformasi ishga tushiriladi.

Turizm va bioxilma-xillik yo‘nalishida “Yashil Samarqand” brendi, “Green Hotels Samarkand” reyting tizimi, “Samarkand City Biodiversity Index” metodologiyasi, “Urban Biodiversity Samarkand” pilot loyihasi va “Bioxilma-xillikni asraymiz” ko‘ngillilar dasturi amalga oshiriladi. Shu orqali Samarqand shahri ekologik turizm, yashil investitsiyalar va barqaror shaharsozlik yechimlari markaziga aylantiriladi.

Umuman, loyiha doirasida Samarqandni “Markaziy Osiyoning yashil investitsiyalar va innovatsiyalar poytaxti” sifatida shakllantirish uchun tashkiliy, moliyaviy va amaliy asoslar yaratiladi.

Prezidentimiz takliflarni ma’qullab, cho‘llanishga qarshi kurashish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, shaharsozlikda ekologik talablarni kuchaytirish va aholi uchun sog‘lom muhit yaratish masalalari yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘zA

NEFT-GAZ TARMOG‘INI KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORLASH ISHLARIGA ALOHIDA E’TIBOR QARATILDI

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, 881 ta mahalladagi 220 ming xonadonning gaz ta’minotini yaxshilash va texnologik yo‘qotishlarni qisqartirish maqsadida uch bosqichli taqsimlash tizimidan ikki bosqichli tizimga o‘tkazish ko‘zda tutilgan. 711,9 kilometr gaz tarmog‘i va 400 ta gaz taqsimlash punkti mukammal ta’mirlanadi hamda rekonstruksiya qilinadi.

Aholi va ijtimoiy soha obyektlarini suyultirilgan gaz bilan ta’minlash masalasi ham ko‘rib chiqildi. Kuz-qish mavsumida 325,7 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berish, shu jumladan, borish qiyin bo‘lgan 229 ta qishloqdagi 104,7 ming iste’molchiga 8,2 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazish belgilangan.

Qish davri uchun yoqilg‘i zaxiralarini shakllantirish bo‘yicha ham choralar ko‘rilmoqda. Jumladan, dekabr-yanvar oylari uchun 120 ming tonna avtobenzin zaxirasini yaratish rejalashtirilgan. Issiqlik elektr stansiyalariga mavsum davomida 4 million 161 ming tonna ko‘mir yetkazib berish prognoz qilinmoqda.

“O‘zbekneftgaz” tizimidagi korxonalarda texnologik barqarorlikni ta’minlash maqsadida 90 ta texnologik qurilmada ta’mirlash ishlari amalga oshiriladi. Bu ishlab chiqarish quvvatlarining uzluksiz ishlashi, aholi va iqtisodiyot tarmoqlariga energiya resurslarini barqaror yetkazib berishga xizmat qiladi.

Tayyorgarlik ishlari faqat neft-gaz tizimi bilan cheklanmay, umumiy energetika va kommunal sohalar bilan uzviy bog‘liq holda olib borish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Shu maqsadda respublika va hududiy komissiyalar faoliyatini yo‘lga qo‘yib, mavsumga tayyorgarlik ishlarini muvofiqlashtirish va doimiy nazorat qilib borish topshirildi.

Mutasaddilarga belgilangan chora-tadbirlar ijrosini qat’iy nazorat qilish, mavsumga tayyorgarlik ishlarini muddatida va sifatli yakunlash, aholi hamda ijtimoiy soha obyektlariga tabiiy va suyultirilgan gaz, shuningdek, boshqa yoqilg‘i resurslarini barqaror yetkazib berish bo‘yicha tegishli topshiriqlar berildi.

O‘zA

“O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari rahnamoligida ulkan taraqqiyotga erishayotgan buyuk mamlakatdir. Go‘zal Islom sivilizatsiyasi markazi bizda mamlakatning boy tarixi va bebaho merosini aks ettiruvchi ma’rifatparvarlik ruhini yanada teran his etish imkonini berdi. Inshaalloh, ana shu mustahkam poydevor ustida bunyod etilayotgan kelajak ham shunday buyuk bo‘ladi.

AYMAN SAFADIY: “O‘ZBEKISTON PREZIDENTINI IORDANIYADA QABUL QILISH SHARAFIGA EGA BO‘LISHNI INTIQLIK BILAN KUTMOQDAMIZ”

O‘zbekistonga tashrif buyurgan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Bosh vaziri o‘rinbosari, tashqi ishlar va muhojirlar masalalari bo‘yicha vaziri Ayman Husayn Safadiy “Dunyo” AA muxbiriga intervyu berdi:

— Men uchun O‘zbekistonda mehmon bo‘lish katta sharaf. Bizning tashrifimiz o‘tgan yili Podshoh Abdulla II ibn al-Husayn Hazrati Oliylarining O‘zbekistonga amalga oshirgan tarixiy tashrifi hamda Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari bilan o‘tkazgan samarali muzokaralari va sermahsul uchrashuvlarida erishilgan natijalarning mantiqiy davomidir.

Mamlakatlarimiz birodar davlatlardir. Biz hamkorlikning boy tarixiga egamiz va kelgusida o‘zaro manfaatli aloqalarimizni yanada yuksak bosqichga olib chiqish ustida birgalikda ishlayapmiz.

O‘zbekiston Prezident Shavkat Mirziyoyev Janobi Oliylari rahnamoligida ulkan taraqqiyotga erishayotgan buyuk mamlakatdir. Go‘zal Islom sivilizatsiyasi markazi bizda mamlakatning boy tarixi va bebaho merosini aks ettiruvchi ma’rifatparvarlik ruhini yanada teran his etish imkonini berdi. Inshaalloh, ana shu mustahkam poydevor ustida bunyod etilayotgan kelajak ham shunday buyuk bo‘ladi.

Iordaniya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlar hamkorlikni kengaytirish yo‘lida jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Avval ham ta’kidlaganimdek, Podshoh Hazrati Oliylarining O‘zbekistonga tashrifi va Prezident Janobi Oliylari bilan o‘tkazgan uchrashuvlari haqiqatan tarixiy ahamiyatga ega.

Biz iqtisodiyot, madaniyat, turizm, mudofaa hamda boshqa ko‘plab sohalarda hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha aniq yo‘nalishlarni belgilab beruvchi “yo‘l xaritasi”ni ishlab chiqdik. Bugun bu borada sezilarli natijalarni ko‘ryapmiz.

Albatta, yaqin kelajakda O‘zbekiston Prezidentini Ammon shahrida qabul qilish sharafiga ega bo‘lishni intiqlik bilan kutmoqdamiz. Bo‘lajak tashrif munosabatlarimizda erishilgan ulkan taraqqiyotni yanada mustahkamlash va yangi bosqichga olib chiqish imkonini beradi.

Bizda hamkorlikni yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq tasavvur va yondashuv mavjud. Mamlakatlarimiz o‘rtasida allaqachon mustahkam va samarali hamkorlik shakllangan, biroq har ikki xalq manfaati yo‘lida yanada ko‘proq ishlarni amalga oshirish mumkinligiga ishonamiz.

Shu bois, biz to‘g‘ri yo‘ldamiz va kelgusida hamkorligimiz yanada kengayishiga ishonchim komil.

“Dunyo” AA

Xalqaro forum

Turli sivilizatsiya va madaniyatlar o‘rtasidagi muloqotni mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni qaror toptirish hamda ekstremizm va radikalizmga qarshi ma’rifat bilan kurashish bugun xalqaro hamjamiyat oldidagi ustuvor vazifaga aylangan. Bunday sharoitda islom sivilizatsiyasining ilm-fan, madaniyat va ma’naviyat taraqqiyotiga qo‘shgan beqiyos hissasini xolis ilmiy asosda tadqiq etish, uning insonparvarlik mohiyatini keng targ‘ib qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

MA’RIFAT DIPLOMATIYASIDA YUQORI BOSQICH

Shukrullo JO‘RAYEV, Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bo‘lim boshlig‘i

Davlatimiz rahbarining Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surgan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” tashabbusi xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak baholanib, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan diniy-ma’rifiy islohotlarning muhim g‘oyaviy asosiga aylandi. Ana shu siyosatning amaliy davomi sifatida joriy yil 7-11-iyul kunlari Toshkent, Samarqand va Termiz shaharlarida “I Xalqaro islom sivilizatsiyasi forumi: tinchlik, bag‘rikenglik va ilm-ma’rifat yo‘li” anjumani bo‘lib o‘tadi.

Forum O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi va Din ishlari bo‘yicha qo‘mita tomonidan ICESCO hamkorligida tashkil etilmoqda. Unda O‘zbekiston musulmonlari idorasi, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, shuningdek, IRCICA, WOSCU, TURKSOY, Turkiy madaniyat va meros jamg‘armasi, Oksford islom tadqiqotlari markazi, Xalqaro turkiy akademiya kabi nufuzli xalqaro tashkilot va ilmiy muassasalar ishtirok etadi. Bu esa forumning nafaqat ilmiy, balki diplomatik va gumanitar ahamiyati ham yuqori ekanidan darak.

Anjumanning bosh g‘oyasi islom sivilizatsiyasining insonparvarlik, bag‘rikenglik, ilm-ma’rifat va bunyodkorlikka asoslangan haqiqiy mohiyatini ilmiy dalillar asosida ochib berishdan iborat. Shu ma’noda, mazkur anjuman O‘zbekistonning xalqaro gumanitar maydondagi o‘rnini mustahkamlash, sivilizatsiyalararo muloqotni rivojlantirish hamda Markaziy Osiyoning boy ma’naviy merosini keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Forumda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining ishtiroki alohida ahamiyatga ega. Zero, moturidiylik ta’limoti islom tamaddunida aql va naql, imon va tafakkur, diniy qadriyatlar va hayot haqiqatlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlagan ilmiy maktab sifatida tan olingan. Bugungi kunda diniy mutaassiblik va radikal g‘oyalarga qarshi kurashda aynan ushbu boy merosning ilmiy salohiyatiga ehtiyoj yanada ortib bormoqda.

Samarqand shahrida bo‘lib o‘tadigan “Imom Moturidiy merosi: islom sivilizatsiyasining mo‘tadillik va aql-idrok poydevori” mavzusidagi xalqaro konferensiyada moturidiylik kalom maktabining tarixi va taraqqiyoti, aql va imon munosabati, tinchlik madaniyati, dinlararo muloqot, ekstremizm va radikalizmga qarshi ma’rifiy yondashuv kabi dolzarb masalalar muhokama qilinadi. Bu muhokamalar Imom Moturidiy merosining nafaqat tarixiy, balki bugungi global jarayonlar uchun ham amaliy ahamiyatga ega ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Tadbirning ikki kunlik plenar yig‘ilishlari Islom sivilizatsiyasi markazida o‘tkaziladi. Unda 300 ga yaqin davlat va jamoat arboblari, xalqaro tashkilotlar rahbarlari, taniqli ulamolar, mutaxassislar hamda muzey, kutubxona va qo‘lyozma fondlari rahbarlari ishtirok etadi. Muhokamalarda O‘zbekistondagi diniy-ma’rifiy islohotlar, Uchinchi Renessans g‘oyalari, turkiy xalqlarning islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, hadis, fiqh va kalom ilmlarining rivoji, islom sivilizatsiyasi va zamonaviy texnologiyalar o‘rtasidagi uyg‘unlik kabi masalalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Forumning keyingi bosqichlari Samarqand va Termiz shaharlarida davom etadi. Samarqandda Imom Buxoriy merosi, Imom Moturidiy ta’limoti hamda Markaziy Osiyoning jahon sivilizatsiyasi rivojidagi o‘rniga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyalar, Termizda esa Termiz hadis maktabi va Imom Termiziy merosiga bag‘ishlangan anjuman tashkil etiladi. Bu orqali Movarounnahr ilmiy maktablarining islom sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi o‘rni yanada keng yoritiladi.

Anjuman doirasida qator amaliy tashabbuslarni ilgari surish ham rejalashtirilgan. Jumladan, Islom sivilizatsiyasi kelajagiga oid deklaratsiya qabul qilinishi, xalqaro hamkorlikning “yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi, doimiy faoliyat yurituvchi xalqaro platformani shakllantirish, qo‘shma ta’lim va ilmiy tadqiqot loyihalarini amalga oshirish, yosh olimlar uchun grant dasturlarini yo‘lga qo‘yish, qur’onshunoslik va hadisshunoslik bo‘yicha xalqaro olimpiadalar tashkil etish kabi muhim tashabbuslar ko‘zda tutilgan.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Mazkur tadbirning madaniy dasturi ham uning mazmunini to‘ldiradi. Ishtirokchilar Islom sivilizatsiyasi markazi va Imom Buxoriy memorial majmuasi bilan tanishadi, noyob qo‘lyozma va faksimile nashrlar ko‘rgazmalari, restavratsiya va raqamlashtirish loyihalari taqdimotlari, “Sivilizatsiyalar — Shaxslar — Kashfiyotlar” multimedia namoyishi hamda tarixiy obidalar bo‘ylab maxsus sayohatlarda qatnashadi.

Forumning xalqaro axborot makonida keng yoritilishiga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda yetakchi xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, xalqaro press-turlar, maxsus reportajlar va raqamli media loyihalar amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Eng muhimi, mazkur forum O‘zbekistonning boy ilmiy va ma’naviy merosini keng targ‘ib qilish bilan birga mamlakatimizning xalqaro gumanitar diplomatiyadagi o‘rnini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. U Prezidentimiz tashabbusi bilan joriy yilda BMT va UNESCO qarorgohlarida o‘tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro taqdimotlar uchun ham muhim intellektual va tashkiliy poydevor vazifasini bajaradi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligiga

VODIY GAVHARI:

IQTISODIY O‘SISH VA MA’NAVIY YUKSALISHNING FARG‘ONACHA FORMULASI

Farg‘ona viloyati hokimi Xayrullo BOZOROV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

Boshlanishi 1-betda

So‘nggi o‘n yillikda Farg‘ona viloyati iqtisodiyotiga jami 8 milliard 200 million dollar miqdorida investitsiyalar jalb etilib, 8000 ta zamonaviy ishlab chiqarish quvvati ishga tushirildi. Bu raqamlar ortida minglab yangi ish o‘rinlari va millionlab insonlarning taqdiri mujassam. Tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 100 trillion so‘mlik ulkan resurs yo‘naltirilgani, tijorat maydonlarining 10 million kvadrat metrga kengaygani hududda biznes muhiti nechog‘liq rivojlanganidan dalolat beradi. Kichik va o‘rta biznes subyektlari soni ikki barobar ortib, 13,5 mingtaga yetgani viloyatni haqli ravishda “tadbirkorlar yurti”ga aylantirdi.

Joriy yilda 30 dan ortiq davlatdan investitsiya kiritilishi rejalashtirilgan. Ular orasida ko‘p yillik hamkorlarimiz bo‘lgan Xitoy, Turkiya, Rossiya bilan birga Qatar, Kanada kabi ilk marotaba investitsiya kiritayotgan davlatlar ham bor. Kelgusida investitsiya o‘zlashtirish va eksport uchun yangi bozorlar topish maqsadida qator davlatlarga borishni reja qilganmiz.

Farg‘ona mahsulotlari dunyo bozorini egallamoqda. O‘tgan yili 1,3 milliard dollarlik eksport amalga oshirildi. Mahsulotlar Xorvatiya, Ruminiya, Gretsiya, Jazoir, Tailand, Shvetsiya kabi 11 ta davlat bozorlariga kirib bordi.

Davlatimiz rahbarining har galgi tashriflaridan keyin juda keng ko‘lamdagi ishlar bajariladi. Prezidentimiz qo‘ygan bu yilgi vazifalarning salmog‘i ham ulkan. Tashrif chog‘ida davlatimiz rahbari islohotlar natijadorligi, hududlarda ishlarning borishi va aholini qiynayotgan masalalar tahlili bilan tanishib, bu yil mutlaqo yangi darajadagi topshiriqlar berdi. “Men endi kambag‘allik darajasining qaysidir 3-4 foiz pasayishini qabul qilmayman, yil yakuni bo‘yicha Farg‘onadagi har bitta tuman kambag‘allikdan, ishsizlikdan xoli hududga aylanishi shart”, degan vazifani qo‘ydi Prezidentimiz. Bu vazifa har birimizning zimmamizga, avvalo, katta mas’uliyat yuklaydi. Qolaversa, hududlarda bandlikni ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish, investitsiya, eksport hamda atrof-muhitni yaxshilash masalalariga alohida e’tibor qaratishga undaydi. Bundan tashqari, mahallalarda meva-sabzavot yetishtirish, zamonaviy agrotexnologiyalar orqali eksportni ko‘paytirish imkoniyatlari ko‘rsatib o‘tildi.

Davlatimiz rahbari Farg‘onaga tashrifi doirasida viloyatdagi 50 ming gektar kam hosilli paxta va g‘alla maydoni hamda samarasi kam bog‘lar o‘rnida super intensiv bog‘lar barpo etish bo‘yicha topshiriqlar bergandi. Ular ijrosi bo‘yicha Toshloq tumanida amaliy ishlar bajarilmoqda. Xususan, Toshloq tumani “Varzak” MFY hududidagi 712-713 konturlarda joylashgan 4,76 gektar maydonda yangi bog‘ barpo etish ishlari boshlandi.

Umuman, bu qadimiy diyor taraqqiyotning yangi bosqichida. Zamonaviy uy-joylar, yuqori texnologiyali zavodlar, innovatsion agromajmualar va hududlarni o‘zaro bog‘laydigan transport tizimi viloyatning iqtisodiy va ijtimoiy qiyofasini tubdan o‘zgartirdi. Farg‘ona bugun investorlar uchun jozibador maydonga, ishlab chiqaruvchilar uchun qulay zaminga, xalq uchun esa baxtli yashashga arziydigan istiqbolli o‘lkaga aylandi. Viloyatdagi o‘zgarishlar davlatning e’tibori va xalqning mehnati birlashgan joyda nimalar ro‘y berishi mumkinligining ibratli namunasi bo‘lmoqda.

— Farg‘ona viloyati 2026-yilda “Fitch Ratings” agentligining “BB — Barqaror” reytingini qo‘lga kiritib, mamlakatimizda ikki xalqaro reytingga ega ilk hududga aylandi. Ushbu ko‘rsatkichlar hudud uchun qanday yangi imkoniyatlar eshigini ochadi?

— Joriy yil 7-may kuni “Fitch Ratings” xalqaro agentligi veb-saytida Farg‘ona viloyatining xorijiy va milliy valyutadagi uzoq muddatli emitent defolt reytingi “BB-” darajasida, prognozi esa “Barqaror” (Stable Outlook) etib baholangani to‘g‘risida rasman e’lon qildi. “Fitch Ratings” xalqaro moliya bozorlarida eng nufuzli “Katta uchlik”ka kiruvchi Amerika-Britaniya reyting agentligi hamda u xalqaro reyting bozorining 95 foizini boshqaradi.

Avvalroq, 2025-yil noyabrda “S&P Global” xalqaro reyting agentligi Farg‘ona viloyatining kredit reytingini “B+” darajasidan “BB-” darajasigacha oshirgan. Haqiqatan, u hozir mamlakatimizda ikki nufuzli xalqaro kredit reytingini olgan yagona hudud bo‘lib turibdi. Xalqaro reyting agentliklarining mazkur qarori viloyat moliyaviy barqarorligi mustahkamlanayotgani, jumladan, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar yaxshilanayotganini aks ettiradi.

Farg‘ona viloyati “Fitch Ratings” agentligi tomonidan baholangan O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahri, Armaniston poytaxti Yerevan shahri hamda Turkiyaning Konya shaharlari bilan teng darajada (“BB- / Barqaror”) va Turkiyaning Balikesir shahridan (“B+ / Barqaror”) bir pog‘ona yuqori reyting olgani ham e’tiborga loyiq.

“Fitch Ratings” Farg‘ona viloyatining iqtisodiy salohiyatiga ham alohida e’tibor qaratib, u mamlakatning eng yirik va iqtisodiy faol hududlaridan biri ekanini ta’kidlagan. Mazkur xalqaro kredit reytingining berilishi Farg‘ona viloyatining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy investorlar ishonchini mustahkamlash hamda kelgusida yirik infratuzilma va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bu baho hududdagi iqtisodiy islohotlar, byudjet boshqaruvi va moliyaviy intizom samaradorligining xalqaro moliya institutlari tomonidan e’tirof etilganining yorqin ifodasidir.

Tashqi makroiqtisodiy o‘zgarishlarga qaramay, viloyatimiz barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atini saqlagan holda investitsiyaviy faollikni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha izchil rivojlanishda davom etmoqda.

Toshkent xalqaro investitsiya forumi kabi xalqaro yig‘inlar viloyatimiz uchun nihoyatda samarali va manfaatli maydonga aylandi. Bu yil beshinchi bor o‘tkazilgan forum doirasida muhim kelishuvlarga erishilib, yangi investitsiya loyihalarini boshlashga zamin yaratildi. Eng muhimi, xalqaro investorlar va ishbilarmon doiralarning viloyatga ishonchi ortib, hamkorlar geografiyasi kengaymoqda.

Forum doirasida Buyuk Britaniyaning “Tanto Capital Partners” kompaniyasi asoschisi va boshqaruvchi hamkori Ozan M. Ozkural, BAAning “Welmonde Healthcare Group” asoschisi Mohammed Nisam, shuningdek, xalqaro konsalting kompaniyasi FinAlyzer vakillari va boshqa qator xorijiy kompaniya egalari bilan uchrashuv o‘tkazib, investitsiyalarni jalb etish va istiqbolli loyihalarni ilgari surish bo‘yicha hamkorlik masalalarini muhokama qildik. Uchrashuvlar yakunida o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirishga kelishib oldik.

— So‘nggi yillarda viloyatda AT xizmatlari jadal rivojlanmoqda. “Besh million sun’iy intellekt yetakchisi” dasturi bo‘yicha sertifikatga ega yoshlarning eng ko‘pi Farg‘onaga to‘g‘ri kelayotgani ham buning isbotidir. Xo‘sh, sun’iy intellektdan maqsadli foydalanish, iqtisodiyot istiqbollarini belgilash borasidagi ishlar qanday ketyapti?

— Darhaqiqat, bugun Farg‘ona yoshlari zamonaviy texnologiyalar, arxitektura, sanoat, sun’iy intellekt, AT va innovatsion loyihalarda dadil qadam tashlayapti.

Birgina misol: Farg‘ona shahridagi Prezident maktabining 11-sinf o‘quvchisi Otabek Komilov yil boshida dunyoning eng nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri — Mohammed Bin Zayed University of Artificial Intelligence (MBZUAI) universitetiga to‘liq grant asosida qabul qilingan edi. Ushbu ta’lim dargohi dunyoda sun’iy intellektga ixtisoslashgan birinchi universitet bo‘lib, QS xalqaro reytingiga ko‘ra sun’iy intellekt yo‘nalishida dunyoning TOP-10 universiteti safidan joy olgan.

Bunday iqtidorli yoshlarni yonimizga olib, davlat idoralaridagi har bir xizmatni, har bir jarayonni raqamlashtirib, aholi va tadbirkorlarga qulaylik yaratishga harakat qilyapmiz.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, mahallalarning ustunliklarini sun’iy intellekt yordamida tahlil qilib, ish o‘rni, qo‘shilgan qiymat, aholi daromadini ko‘paytiradigan loyihalar ishlab chiqilsa, startap klub tashkil qilinib, yangi kreativ g‘oyalar hayotga tezroq joriy etilsa, viloyat iqtisodiyotida “katta sakrash”, odamlar hayotida tub burilish bo‘ladi.

Shu maqsadda Prezidentimiz tashrif chog‘ida Farg‘ona shahridagi AT park majmuasida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishgan edi. Mazkur majmua davlatimiz rahbarining 2024-yil avgustdagi tashrifi davomida bergan topshiriqlari asosida barpo etilgan. Ushbu yirik obyekt bir vaqtning o‘zida 200 nafargacha foydalanuvchini qamrab oladi. Yiliga 3000 dan ortiq yoshni o‘qitish, amaliy loyihalarga jalb etish va AT xizmatlari ko‘rsatish imkoniyati yaratilgan.

Markazda frilanserlar va dasturchilar uchun zamonaviy kovorking muhiti, rezident kompaniyalar uchun to‘liq jihozlangan ofislar tashkil etilgan. Bu yerda ta’lim, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayoni o‘zaro bog‘langan holda yo‘lga qo‘yilgan. Yaratilgan infratuzilma yoshlarning o‘zini o‘zi band qilish imkoniyatini kengaytirib, barqaror daromad topishiga xizmat qiladi. Yangi park doirasida rezidentlar sonini 200 ga yetkazish, 700 ta yangi ish o‘rni ochish, xizmatlar hajmini oshirish hamda 30 million dollarlik eksportga erishish maqsad qilingan.

Hakim Yo‘ldoshev olgan surat.

Kelgusida mazkur majmuada sun’iy intellekt texnologiyalari xabini tashkil etish, boshqaruv tizimlarini raqamlashtirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, sun’iy intellekt, dasturlash, grafik dizayn, kompyuter savodxonligi va ingliz tili bo‘yicha zamonaviy o‘quv kurslari yo‘lga qo‘yiladi.

Bugun viloyatimizda 10 ga yaqin davlatda faoliyat yuritayotgan nufuzli kompaniyalar ofislari ochildi. Jumladan, AQSHdagi “Silk Road”, “Foresight Intelligence” va “Pro Team Solutions” kompaniyalari bilan hamkorlik o‘rnatilib, filiallari tashkil etildi. Shuningdek, Yaponiyada faoliyat yuritadigan “Micado IT Development” kompaniyasining filiali ham ish boshladi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni izchil davom ettirgan holda joriy yilda viloyatda frilanserlar sonini 6500 nafarga, AT park rezidentlarini 200 taga oshirish, AT xizmatlar eksporti qiymatini 50 million dollarga hamda sohadagi ish o‘rinlari 2500 taga yetkazishni reja qilganmiz. Qolaversa, viloyatda axborot texnologiyalari sohasini jadal rivojlantirish maqsadida qator yirik loyihalar amalga oshiriladi.

EPAM, CISCO, Microsoft, Huawei kabi xalqaro AT maktablari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilib, xalqaro standartlar asosida 500 mutaxassis tayyorlanadi hamda yiliga 800 bitiruvchining mahalliy va xalqaro mehnat bozorida ishga joylashishi ta’minlanadi.

Beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida mamlakatimizga kelgan Janubiy Koreyaning nufuzli oliy ta’lim muassasalaridan biri — SeoulTech universiteti rektori Kim Dongxvanni qabul qildik. Muloqotda o‘tgan yili delegatsiyamizning Janubiy Koreyaga xizmat safari chog‘ida erishilgan kelishuvlarni amaliy bosqichga olib chiqish, oliy ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni kengaytirish, malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda Farg‘ona davlat texnika universiteti va Qo‘qon universiteti bilan sun’iy intellekt hamda axborot texnologiyalari sohasida qo‘shma ta’lim dasturlarini yo‘lga qo‘yish, maktab bitiruvchilarini oliy ta’limga yo‘naltirish istiqbollariga alohida e’tibor qaratildi.

Sanoat va ilm-fan integratsiyasini Janubiy Koreyaning ilg‘or tajribasi asosida mustahkamlash, AT parkning Farg‘ona viloyati filiali bilan amaliy hamkorlikni rivojlantirish, sanoat korxonalari uchun raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yo‘nalishlarida yuqori malakali mahalliy mutaxassislar tayyorlash yuzasidan fikr almashdik.

Uchrashuv yakunida SeoulTech universiteti, Farg‘ona davlat texnika universiteti hamda AT parkning Farg‘ona viloyati filiali o‘rtasida anglashuv memorandumi imzolandi. Bu soha bo‘yicha yoshlarimizda qiziqish ko‘p ekan, biz mana shunday yangi-yangi loyihalarga qo‘l urishdan charchamaymiz.

— Bugun Farg‘onada aholini ish bilan ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha manzilli choralar asosida qanday tizimli vazifalar amalga oshirilmoqda?

— Prezidentimiz barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarning samaradorligi eng quyi bo‘g‘indagi real ahvolga, ya’ni oddiy odamlarning hayotiga qanchalik ta’sir qilayotganiga qarab baholanishini boshidanoq qat’iy talab qilib keladi. Chunki mamlakat miqyosidagi har qanday katta islohot agar mahalla darajasiga tushmasa, har bitta xonadon eshigini qoqib kirmasa, kutilgan natijani bermaydi.

Bugun mahalla aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, daromadini oshirish va bandligini ta’minlash bo‘yicha asosiy o‘sish nuqtasiga aylanib ulgurdi. Har bir mahallaning o‘ziga xos imkoniyatlari, tabiati, infratuzilmasi va aholisining ko‘nikmalaridan kelib chiqib, ichki drayverlarni aniqlash hamda ishga solish iqtisodiy barqarorlikning eng to‘g‘ri va samarali yo‘li ekanini tushundik.

Hokim yordamchilari, xotin-qizlar faollari va boshqa mas’ullarning bevosita xonadonbay o‘rganishi natijasida har bir hududning ixtisoslashuvi aniqlanyapti. Bir mahalla bog‘dorchilik yoki issiqxona xo‘jaligiga ixtisoslashgan bo‘lsa, boshqasi hunarmandchilik, tikuvchilik yoki xizmat ko‘rsatish sohalarida yuqori salohiyatga ega. Ushbu tabiiy va an’anaviy afzalliklarni aniqlab, ularni moliyaviy hamda tashkiliy jihatdan qo‘llab-quvvatlash qisqa muddatda minglab ish o‘rinlari ochish imkonini beryapti.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bandligini ta’minlashda imtiyozli kreditlar, subsidiyalar va soliq yengilliklarining aynan mahalla darajasigacha tushirilgani hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ilgari oddiy fuqaro o‘z biznesini boshlash uchun oylab idoralar eshigida sarson bo‘lgan. Bugun imkoniyatlar uning xonadoniga kirib bormoqda. Tomorqadan unumli foydalanish, kichik ishlab chiqarish liniyalarini yo‘lga qo‘yish yoki oilaviy korxonalar tashkil etish orqali odamlar nafaqat o‘zini o‘zi ish bilan ta’minlayapti, balki qo‘shnilariga ham ish o‘rni ochyapti. Natijada xonadonlar daromad manbaiga, mahallalar esa iqtisodiy faollik markazlariga aylanmoqda.

Bugun viloyatimizdagi 55-60 foiz mahallalarning ixtisoslashuvi to‘liq yakuniga yetdi deb ayta olamiz. Masalan, Buvayda tumanidagi har bir mahallaning o‘ziga yarasha ixtisoslashuvi bor. Uchko‘prik tumani esa mahallalarning sanoatlashuvi nuqtayi nazaridan, o‘ylashimcha, respublika miqyosida yetakchi tumanlardan.

Yaqinda Bag‘dod tumanidagi mahallalarni ko‘zdan kechirganimizda qalampir yetishtirish bilan shug‘ullanayotgan ikkita yosh tadbirkor bilan uchrashdik. Shu ikkisi butun boshli mahallani ish bilan ta’minlayapti. Qalampirdan yiliga uch marta hosil olayotgan ekan. Bunday tadbirkorlar juda ko‘p.

Masalan, shu tumanning Irg‘oli mahallasida yangi iqtisodiy drayver — lolachilik yo‘nalishi shakllantirilmoqda. Hududda lolachilikka ixtisoslashgan mahalla drayverini rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash, kambag‘allikni qisqartirish hamda yangi ish o‘rinlari ochish borasida izchil ishlar bajarilmoqda. Bir necha yildan buyon Niderlandiya lolalarini yetishtirib, yuqori daromad olib kelayotgan bir tadbirkor faoliyati alohida e’tirof etildi hamda ilg‘or tajriba sifatida mahalla ahliga tavsiya qilindi.

Uchko‘prik tumanini olaylik. Tumanning unumdor va serhosil bog‘larida ayni kunlarda shaftoli pishig‘i qizg‘in pallaga kirdi. Tuman aholisi asosan bog‘dorchilik bilan shug‘ullanib, yildan yilga mo‘l hosil yetishtirmoqda. Bugun uchko‘priklik bog‘bonlar parvarishlagan sifatli shaftolilar nafaqat ichki bozorlarni, balki eksport bozorlarini ham egallab boryapti. Ayrim fermer xo‘jaliklari bir mavsumning o‘zida 300-400 million so‘mgacha daromad olmoqda.

Keyingi yillarda Farg‘ona tumanidagi o‘nlab mahallalarda malinachilik hududni iqtisodiy rivojlantirish drayveriga aylanmoqda. O‘z navbatida, sohaga innovatsion g‘oyalar hamda ilg‘or xorijiy tajriba keng joriy etilishi natijasida yildan yilga tarmoqning eksport salohiyati yuksalib bormoqda.

“Sanoat” MFY hududidagi 33,2 gektar yer “Turon Farg‘ona bog‘lari” MCHJ tomonidan ijaraga olinib, “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida malina plantatsiyasini tashkil etish rejalashtirilgan. Loyihaning umumiy qiymati 10 milliard so‘mni tashkil etib, mablag‘lar tashabbuskorning o‘z hisobidan yo‘naltirilyapti. Mazkur loyiha doirasida 200 ta yangi ish o‘rni ochish hamda uni 2026-yil yakunida ishga tushirish ko‘zda tutilgan.

Bu yil kambag‘allikni qisqartirish va bandlikni ta’minlashda yangi yondashuvlarni amalga oshiramiz. Quva tumani “Karkidon” suv omboriga tutash hududdagi adirlikda agrovoltaika usulida 50 gektar maydonda quyosh paneli o‘rnatilib, tagida uzumchilik hamda yana 50 gektar yerda chorvachilik va baliqchilik xo‘jaligi tashkil etilmoqda.

Uzumzorlar 100 ta kambag‘al oilaga 50 sotixdan bo‘lib berilib, 250-300 kishining bandligi ta’minlanadi. Chorvachilik va baliqchilikda ham kamida 100 ga yaqin odam ishga joylashtiriladi. Bu jarayonda kambag‘al oilalar quyosh panelidan yiliga 70 million so‘mgacha daromad olib, uzum parvarishlaydi. Qator orasiga ekilgan ekinlardan 50-60 million so‘m foyda ko‘radi. Uzum hosilga kirganda yana 60-70 million so‘m daromad olish imkoniga ega bo‘ladi. Bu orqali 100 ta oila kambag‘allikdan chiqariladi.

Lekin bu eng yuqori natija emas. Hali qilinadigan ishlar nihoyatda ko‘p. Muhimi, qaynoq jarayonning ichidamiz — shiddatimizni, jur’atimizni bundan buyon ham so‘ndirmay davom etishimiz shart.

— Turizm sohasida viloyatda qator imkoniyatlar mavjud va o‘ziga xos tajriba ham to‘plangan. Endi agro, eko va ziyorat turizmi yo‘nalishlaridagi istiqbolli rejalar qaysi jabhalarda aks etadi?

— So‘nggi yillarda agroturizm, ekoturizm, tibbiyot turizmi kabi iboralar paydo bo‘ldi. Endi xorijlik sayyohlar va vatanimiz bo‘ylab sayohatga otlangan yurtdoshlarimiz ona zaminimiz in’om etayotgan imkoniyatlardan foydalanib, o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘ygan va sayyohlar uchun mahsulotlarini taqdim etayotgan tadbirkorlar huzurida bo‘ladi. Dalalarda yetishtirilayotgan turfa ne’matlardan tatib ko‘radi. Bunda ham hordiq chiqariladi, ham salomatlik tiklanadi. Chunki eko va agrar turizm maskanlaridagi bir-biridan sarxil mevalar, uzumzorlar ko‘rgan ko‘zni quvnatadi, u yerda yetilgan mevalar tanaga darmon, ruhga quvvat bag‘ishlaydi. Dorivor giyohlar plantatsiyasi, turli mamlakatlardan keltirilgan o‘simliklar ekilgan issiqxonalardagi manzara esa kishiga zavq bag‘ishlaydi.

Farg‘ona viloyatining turizm salohiyatini to‘liq ishga solish bo‘yicha qilinayotgan ishlar natija bermoqda. Keyingi yillarda hududga xorijlik sayyohlar tashrifi bir necha barobar oshgani ham buning yaqqol dalilidir.

Qadimiy Marg‘ilon shahri bu borada katta imkoniyatlarga ega. Davlatimiz rahbari qarori asosida bu yerda “Burhoniddin Marg‘inoniy” majmuasi barpo etildi. 35 gektar maydonni egallagan majmuada sayyohlar uchun barcha qulayliklar yaratilmoqda.

Buyuk alloma Burhoniddin Marg‘inoniyning boy ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish majmuaning asosiy yo‘nalishlaridan. Shu bilan birga, hududda qadimiy hunarmandchilik an’analarini saqlash, ziyorat va madaniy turizmni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Majmuada “Otabek va Kumush uyi” muzeyi ham tashkil etilgan. Uning devorlarida “O‘tkan kunlar” romani sahnalari jonlantirilib, adabiyot va tarixni uyg‘unlashtirgan noyob muhit yaratilgan. Shuningdek, qisqa muddatda bunyod etilayotgan ushbu muhtasham turizm majmuasida 5 ta “Wyndham” va “Hilton” brendi asosida 5 yulduzli mehmonxonalar va mehmon uylari, 15 ta restoran, 3000 o‘rinli amfiteatr, 500 o‘rinli Maqom teatri markazi, ko‘rgazmalar pavilyoni, 60 ga yaqin do‘kon, 150 ta savdo rastasi, Marg‘ilon an’analarini o‘zida mujassam etgan 11 ta usta hunarmandlar uyi, 24/7 rejimda faoliyat yurituvchi gastronomik ovqatlanish majmualari, Sharq bozori, favvoralar, sayr uchun 8 kilometrli sohil bo‘yi yo‘lagi ishga tushiriladi.

Ana shunday ishlar hisobiga viloyatga turistlar oqimi qo‘shimcha 1 millionga oshadi. Xizmat ko‘rsatish qiymati 1,2 trillion so‘mga ko‘payadi. Kamida 2000 ta ish o‘rni ochiladi.

Farg‘ona viloyatining shimoli-sharqiy qismida joylashgan “Karkidon” suv ombori atrofidagi minglab gektar yer asrlar davomida ko‘pning e’tiboridan chetda qolardi. Tosh-shag‘aldan iborat, ko‘z ilg‘amas dala-dashtlar qarovsiz, kimsasiz edi. Prezidentimiz tashrifidan so‘ng yurtimizda sayyohlikni rivojlantirishga qaratilgan hayotbaxsh loyihalar bu yerda yangi imkoniyatlar eshiklarini ochdi.

Suv ombori ayni kunda vodiyliklarning yozgi dam olish va ekoturizm uchun eng jozibador manzillaridan. Hudud salohiyatidan samarali foydalanib, avval yaydoq dala bo‘lgan manzil bugun turistik xabga aylantirildi. Hududda qiymati 635 milliard so‘mlik zamonaviy sayyohlik majmuasi shakllanmoqda. Bu yerda agro, ekstremal va ekoturizmlarni o‘zida jamlagan muhtasham kompleks qad rostlayapti. Suv omborining ikki yonidagi tepaliklar orasiga dor yo‘li tortilib, harakatlanuvchi osma kabinalar qo‘yiladi. Ular ikki qirg‘oqni bir-biri bilan bog‘laydi va dam oluvchilarda hayajonli, unutilmas taassurot qoldiradi. Uning qirg‘og‘ida cho‘milish havzalari, suv attraksionlari, quyosh nurida toblanish uchun sharoitlar yaratilyapti. Bolajonlar uchun qum burchaklari tashkil etilmoqda.

Zamonaviy mehmon uylari, agroturizm majmuasi, gulzor, o‘ta foydali lavandazor, ekobozor, so‘lim xiyobonlar, umumiy ovqatlanish shoxobchalari mavsum davomida sayyohlar xizmatida. Shuningdek, yuzdan ortiq tadbirkorlik subyektida 2000 ga yaqin yangi ish o‘rni ochildi.

Bu yerda motokross maydonlari, ikki kilometrli dor yo‘li, karting va golf maydonlari ham tashkil etilyapti. Belgilangan rejaga ko‘ra, majmua keyingi yili to‘liq quvvatda ishga tushiriladi.

Ushbu hududda turizm rivojlangan davlatlar amaliyotini qo‘llash maqsadida Turkiya, Xitoy va BAAga mutaxassislar yuborilib, ularning ishlash uslublari va tajribasi bilan tanishib kelindi.

Misol uchun, 12 gektar maydonda Dubaydagi “Dubay Mirakl Garden” uslubidagi gullar parki tashkil etilmoqda. Boshlagan ishlarimiz natijasida hozir chet ellik investorlar bu yerdagi qurilish ishlariga qiziqish bildirib, o‘zlari taklif bilan chiqmoqda.

Bundan tashqari, Farg‘ona tumanida “Shohimardon — Yordon” xalqaro kurort zonasi, “Vodil” malina-agroturizm klasteri, “Avval” ko‘ngilochar turizm majmuasi va “Chimyon” sanatoriy-kurort zonasi kabi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Turistlar soni ko‘p, lekin viloyatning tarixi, so‘lim tabiatiga nisbatan qaralsa, bu hali biz kutgan natija emas. Uzog‘i ikki yilda Farg‘onada turizm bo‘yicha hali shunday ishlar qilamizki, xorijiy va mahalliy turistlarning viloyatda qolish muddati 10 kungacha uzayadi, tashrif obyektlari soni esa bir necha barobarga oshadi.

— Xayrullo Hayitboyevich, mazmunli suhbat uchun sizga ko‘pdan ko‘p rahmat.

Haqiqiy manzarani bilmoq istasangiz, Farg‘onaga boring! Farg‘onaliklar bilan suhbatlashing, ularning yuzidagi, ko‘zidagi, hayotidagi o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rasiz.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 7-iyul, 136-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

Tahlil va taqqos

FARG‘ONA: ISLOHOTLAR SHIDDATIDAGI 10 YIL

Taraqqiyot hech qachon o‘z-o‘zidan kelmaydi. U jasoratli qarorlar, qat’iy iroda va sa’y-harakatlar orqali xalq manfaati ustuvor qo‘yilgan muhitdagina ko‘zga ko‘rinadi. Dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan bugungi davrda har bir davlatning mintaqaviy va xalqaro miqyosdagi mavqei aholi farovonligiga qaratilayotgan e’tibor bilan belgilanadi. Shu ma’noda, yurtimizda keyingi o‘n yildagi keng qamrovli islohotlar iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy barqarorlik va inson kapitalini rivojlantirishning muhim omiliga aylandi.

Abu Bakir O‘ROZOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Prezidentimizning har bir hudud va sohani taraqqiy ettirish yo‘lidagi azmu shijoati bugun natijasini ko‘rsatmoqda. Necha yillardan beri ishsiz va daromadsiz yurgan fuqarolar katta tadbirkorga, yaqin 50 yilda na toza ichimlik suv, na elektr energiyasi va na asfalt yo‘li bo‘lmagan aholi punktlari obod go‘shalarga aylandi.

Yangilanishlarning adog‘i yo‘q. Bu o‘zgarishlarni tizimga solib, yorqinroq ko‘rsatish maqsadida davlatimiz rahbarining viloyatlarga tashrifi va u yerda berilgan topshiriqlar ijrosi qanday ta’minlangani, yaqin o‘n yilda ushbu hududlardagi islohotlar dinamikasi bosqichma-bosqich qanday ko‘rinish olganini yillar ketma-ketligida taqqoslaymiz.

Dastlabki hudud — Farg‘ona viloyati. Prezidentimiz ushbu viloyatga necha marotaba tashrif buyurgani va unda berilgan topshiriqlar ijrosi qanday ta’minlanganini tahliliy taqqoslar orqali ochib beramiz.

2016-YIL: o‘zgarishlar poydevori qo‘yilgan palla

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev 1-noyabr kuni Farg‘ona viloyati saylovchilari bilan uchrashdi.

Shavkat Mirziyoyev uchrashuvda nutq so‘zladi va saylovoldi dasturida belgilangan asosiy yo‘nalishlar haqida batafsil to‘xtaldi. Saylovchilarning yorqin kelajak, turmush darajasi yaxshilanishi borasidagi umidlari uyg‘ona boshladi.

2017-YIL: odamlar manfaati yo‘lida

Prezidentimiz joylarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi, bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, yangi loyihalar bilan tanishish, xalq bilan muloqot qilish maqsadida 2017-yil 22-iyun kuni Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurdi.

Mamlakatimiz yetakchisi dastlab Farg‘ona asalarichilik ishlab chiqarish o‘quv markazida bo‘ldi. Markazda bir yilda 600 mutaxassis o‘qitiladi. Zamonaviy o‘quv reja asosida olimlar tomonidan amaliyot darslari o‘tiladi. E’tiborli jihati, 2016-yilda viloyatlarga 20 ming, chet davlatlarga 30 ming dona sifatli asalari paketi yetkazib berilgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib, viloyatda yiliga 2 ming tonnadan ortiq asal mahsulotlari ishlab chiqarildi, xorijga asalari oilasi eksporti esa yiliga 70 ming donani tashkil etdi.

Davlatimiz rahbari viloyatga tashrifi davomida Qo‘shtepa tumanida chorvachilik kompleksi, ipakchilik va pillachilikni rivojlantirish strategiyasi bilan ham tanishdi. Erkin Vohidov nomidagi Marg‘ilon shahri madaniyat va istirohat bog‘ini rekonstruksiya qilish, Marg‘ilon hunarmandlar markazini tashkil etish bo‘yicha mutasaddilarga tegishli ko‘rsatmalar berdi.

Farg‘ona tumanidagi “Mindonobod agrosanoat” agrofirmasiga tashrif buyurib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish loyihalarini ko‘zdan kechirdi.

2017-yil 22-iyundan Marg‘ilondan Qo‘qonga ilk bor elektropoyezd qatnay boshladi. Davlatimiz rahbari Qo‘qonga ushbu poyezdda keldi. Qo‘qon shahridagi “Shaffof metan sanoat” mas’uliyati cheklangan jamiyatida iqtisodiy loyihalar bilan tanishdi.

Prezidentimiz Qo‘qon shahri teatrini borib ko‘rdi. O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti Farg‘ona filiali tajriba xo‘jaligida ham bo‘lib, g‘alla o‘rimi va g‘o‘za parvarishini ko‘zdan kechirdi.

Farg‘ona mexanika zavodiga tashrifi chog‘ida Qo‘qon, Marg‘ilon va Andijon shaharlari o‘rtasida elektr poyezdi qatnay boshlashini ma’lum qildi.

— Ilgari Farg‘ona vodiysida elektropoyezd qatnaydi, desa birov ishonmasdi. Endi Qo‘qondan Andijonga bir soatda yetib borish mumkin. Bu ham xalqimizning uzog‘ini yaqin qilish borasidagi, odamlar manfaatini ko‘zlab amalga oshirilayotgan islohotlarimiz samarasidir, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

2018-YIL: ulkan marralar sari katta qadamlar bilan

Prezidentimiz 2018-yil 12-iyun kuni Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurib, dastlab Quva tumanidagi “Farg‘ona anorchilik” agrofirmasi faoliyati bilan tanishdi.

Shu yerda anorchilik bo‘yicha ilmiy markaz, Farg‘ona davlat universitetida kafedra tashkil etish zarurligini ta’kidladi. Viloyatda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirish hamda investitsiya loyihalari ham taqdimot qilindi.

Marg‘ilon shahridagi “Narimteks” mas’uliyati cheklangan jamiyatida esa tikuvchi ayollar bilan muloqotda bo‘ldi.

Mamlakatimiz yetakchisi 2017-yili viloyatga tashrifi chog‘ida Marg‘ilon shahrida ijodkorlar bog‘i tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatmalar bergan edi. Shu asosda bu yerda qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Mavjud istirohat bog‘i hududi kengaytirilib, manzarali daraxt ko‘chatlari o‘tqazildi, gulzor va maysazorlar tashkil etildi. Bog‘ markazida O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning haykali o‘rnatildi.

Prezidentimiz mazkur bog‘ni borib ko‘rdi. Erkin Vohidov haykali poyiga gul qo‘ydi.

Shuningdek, Oltiariq tumanidagi “Ismoil Nozim obod” fermer xo‘jaligi dalasida bo‘ldi. Qapchig‘oy mahallasidagi “Smart kids” maktabgacha ta’lim tashkilotini borib ko‘rdi.

Tashrifning ikkinchi kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni Shavkat Mirziyoyev Sharqiy harbiy okrugga qarashli harbiy qismga keldi. Havo desantchilari tayyorgarligini oshirib borish uchun aerodinamik trenajyorlar o‘rnatish, “Vatanparvar” tashkilotlari huzurida parashyutchilar to‘garaklari ochish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

Shundan so‘ng Farg‘ona shahridagi Mustaqillik mavzesida barpo etilgan ko‘p qavatli uy-joylarni ko‘zdan kechirdi.

2019-YIL: har bir soha bo‘yicha izlanishda, tinimsiz harakatda

Prezidentimiz 2019-yil 6-may kuni Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodida bo‘ldi. Mazkur korxona o‘z vaqtida vodiydagi neft konlarini o‘zlashtirish va mintaqa davlatlariga neft mahsulotlari yetkazib berish maqsadida bunyod etilgan. Davlatimiz rahbari zavod ishchilari va investorlar bilan suhbatlashdi.

— Bu ishlardan asosiy maqsad — korxonani to‘liq quvvat bilan ishlatish, odamlarni ish bilan ta’minlash. Bu Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodining yangi davri bo‘ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

— Hamma iqtisodiy sohalarda asosiy mezon — daromad, — dedi Shavkat Mirziyoyev Farg‘ona tumanidagi “Komiljon ota Mamajonov” fermer xo‘jaligi dalasida viloyat dehqonlari bilan suhbatda.

Farg‘ona shahrida viloyat faollari, vazirlik va idoralar rahbarlari, nuroniylar, tadbirkorlar ishtirokida o‘tgan yig‘ilishda Prezidentimiz yig‘ilganlarni, butun xalqimizni Ramazon oyi hamda yaqinlashib kelayotgan Xotira va qadrlash kuni bilan tabrikladi.

Davlatimiz rahbari Xalqaro hunarmandchilik festivalining ochilish marosimida ishtirok etish uchun 14-sentabr kuni yana Farg‘ona viloyatiga bordi.

Shu kuni “Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasida bo‘lib, “Shaffof omadli sanoat” qo‘shma korxonasi faoliyati bilan tanishdi, uy-joylar qurilishiga oid loyihalarni qayta ko‘rib chiqish, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarini rivojlantirish bo‘yicha besh yillik reja qilish zarurligini ta’kidladi.

Qo‘qon shahridagi Buyuk allomalar muzeyida viloyat faollari, nuroniylar, ziyolilar bilan muloqot qildi.

— Vaqt shiddat bilan o‘tyapti. Har bir soha bo‘yicha izlanishda, tinimsiz harakatdamiz. O‘zgarishlar bor, lekin hali bizni qanoatlantirmaydi, — dedi Prezidentimiz.

Xalqaro hunarmandchilik festivalining tantanali ochilish marosimida barchani chin yurakdan qutlab, yurtimizga, ushbu anjumanga bo‘lgan katta hurmat va e’tibori uchun xorijiy mehmonlarga tashakkur izhor etdi.

Jahon hunarmandlar kengashi tomonidan Qo‘qon shahriga “Jahon hunarmandlari shahri” degan yuksak unvon berildi.

2020-YIL: maqtovlarga chek qo‘yilgan yil

O‘zbekiston Prezidenti 2020-yil 5-iyun kuni Farg‘ona viloyatiga amaliy tashrif bilan keldi.

Mamlakatimiz yetakchisi Qo‘shtepa tumanidagi “Tursunov Yusufjon yeri” fermer xo‘jaligi dalasida bo‘lib, g‘alla rivojini ko‘zdan kechirdi. Daraxt qatorlari orasiga sarimsoqpiyoz va dukkakli ekinlar ekish, bunday bog‘larni ko‘paytirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Toshloq tumanidagi “O‘z-Segang” qo‘shma korxonasida ish jarayoni bilan ham tanishdi. Bu yerga Italiya, Turkiya, Janubiy Koreya va Xitoydan ilg‘or texnologiyalar keltirib o‘rnatilgan.

Farg‘ona tumanida ishga tushirilgan “Ekokerama” MCHJda bo‘lgan Prezidentimiz yurtimiz foydali qazilmalarga boyligi, lekin ular asosida tayyorlanadigan materiallar katta miqdorda chetdan keltirilayotganiga e’tibor qaratdi.

— Shuncha imkoniyat bo‘la turib, biz kimni boqyapmiz? Xalqimizni boqsak bo‘lmaydimi? — deya haqli savol qo‘ydi Prezidentimiz. — Mamlakatimizning har bir qarich yeri, har bir boyligi aholi jon boshiga daromadni ko‘paytirishga xizmat qilishi kerak.

Shu yerda viloyatda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalari taqdimoti o‘tkazildi. Davlatimiz rahbari Marg‘ilondagi Hunarmandlar markazini ham borib ko‘rdi.

Tashrifning ikkinchi kuni Farg‘ona shahrida viloyat va tumanlar hokimlari, soha va tarmoqlar rahbarlari, jamoatchilik vakillari ishtirokida yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Davlatimiz rahbari xalq bilan ochiqcha gaplashib, muammolarni birgalikda hal etish, odamlarning og‘irini yengil qilish maqsadida kelganini ta’kidladi.

— Men qisqa, sizlar ko‘proq gapirsalaringiz to‘g‘ri bo‘ladi. Maqtov kerak emas. Prezidentga eng katta maqtov bo‘lib bo‘lgan — bu xalq ishonchi. Kelib, qarsak eshitib ketish mengayam oson. Lekin bundan natija bo‘lmaydi, — dedi Prezidentimiz.

Yig‘ilishda so‘xlik yoshlar uchun vodiy viloyatlaridagi oliy ta’lim muassasalarida 2020/2021 o‘quv yilida davlat granti asosida maqsadli ravishda qo‘shimcha 500 ta o‘rin ajratilishi ma’lum qilindi.

2021-YIL: loyihalar amalda bo‘y ko‘rsata boshladi

O‘zbekiston Prezidenti 2021-yil 4-fevral kuni Farg‘ona viloyatiga keldi. Tashrif dasturi juda tig‘iz va mazmunan boy bo‘ldi. Oltiariq tumanidagi “Fayzli bog‘lar sari” uzumchilik kooperatsiyasidagi muloqotda yer ajratib berish orqali Farg‘ona viloyatida 200 ming yoshning bandligini ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Davlatimiz rahbari Rishton tumanida qurilgan Xalqaro kulollik markazini borib ko‘rdi. Taniqli kulollar Muzaffar Saidov va Sharofiddin Yusupov xonadoniga ham kirib, ular bilan samimiy suhbatlashdi.

Shuningdek, Farg‘ona tumanidagi “Vodiy Shoes” korxonasi ish jarayonini ko‘zdan kechirdi. Birinchi bosqichda 1 million juft poyabzal ishlab chiqarilmoqda, 2 mingdan ziyod ish o‘rni yaratilgan.

Prezidentimiz 2019-yil 6-mayda Farg‘ona viloyatida bo‘lganida toshdan qog‘oz ishlab chiqarish loyihasi taqdimot qilingan edi. Ikki yil o‘tib, ushbu loyiha Farg‘ona shahrida “Fergana stone paper” korxonasi bo‘lib amalga oshdi. Tashrif arafasida ushbu korxona sinov rejimida ishga tushirildi.

Shu kuni Farg‘ona shahrida xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Sessiyada Xayrullo Bozorov Farg‘ona viloyati hokimi etib tasdiqlandi.

Xalq deputatlari sessiyasidan so‘ng Prezidentimiz kutilmaganda Farg‘ona shahridagi Shodiyona mahallasiga bordi. Mahalla oralab yurib, aholi bilan uchrashdi. Shuningdek, Farg‘ona shahri Tarona ko‘chasida qurilgan 16 qavatli yangi uy-joylarni ham borib ko‘rdi.

Farg‘ona mamlakatimizning aholi eng zich joylashgan shaharlaridan. Shu bois, bu kabi zamonaviy ko‘p qavatli uylar aholining o‘sib borayotgan talabini qondirishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etildi.

Mamlakatimiz yetakchisi 2021-yil 28-sentabr kuni Farg‘ona viloyatining Bag‘dod tumaniga keldi. Tumanda o‘sha vaqtlar 218 mingdan ziyod aholi yashar, uzoq vaqt qurilishga e’tibor bo‘lmagani tufayli odamlarning uy-joyga ehtiyoji yuqori edi. Davlatimiz rahbari mahalladagi yangi uylardan biriga ko‘chib kelgan Abduqahhor ota va Oyzoda aya xonadonida bo‘ldi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyev 28-sentabr kuni viloyat saylovchilari bilan uchrashuv o‘tkazdi. Uchrashuvdan so‘ng Bag‘dod tumani Guliston mahallasida bunyod etilgan Madaniyat markazida san’at namoyandalari bilan suhbatlashdi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz Qo‘shtepa tumaniga borib, g‘o‘zani tomchilatib sug‘orish texnologiyasini ko‘zdan kechirdi. Tumandagi Namuna mahallasida aholi hayoti bilan tanishdi. Jumaboy Ismoilov xonadonida mehmon bo‘ldi.

2022-YIL: katta sakrash yili

Davlatimiz rahbari 2022-yil 12-may kuni Oltiariq tumaniga tashrif buyurdi. Oltiariqning ustuvorligi dehqonchilikda, odamlarining omilkorligida. Ayniqsa, Oltiariq uzumi chet ellarda ham taniqli brendga aylangan.

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev Furqat tumanidagi “Usta Yusufjon naqqosh” oilaviy korxonasi, Buvayda tumanida qurilgan mebelsozlik majmuasini borib ko‘rdi. Uchko‘prik tumanidagi Yengil sanoat va logistika markaziga bordi.

Bu majmua ham Prezidentimiz tashabbusi natijasi. Davlatimiz rahbari to‘qimachilikda qayta ishlash darajasini va mahsulotlar sifatini oshirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

— Bugun bozor beshafqat. Bu raqobatga munosib bo‘lish uchun tadbirkorning kamida besh yillik mo‘ljali, sifat kafolati, tannarxda o‘zining rezervi bo‘lishi kerak, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Marg‘ilon shahridagi Navro‘z mahallasi hududi ilgari toshloq, foydalanilmaydigan yer edi. Lekin kommunikatsiya va logistika jihatidan juda qulay. Prezidentimiz tashabbusi bilan u yerda Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi tashkil etildi. Davlatimiz rahbari ushbu hudud hamda Toshloq tumanidagi “Agro impex valley” MCHJ faoliyati bilan tanishdi. Toshloq tumanida ishlab chiqarilayotgan sanoat va hunarmandlik mahsulotlarini ko‘zdan kechirdi.

Shu kuni Prezidentimiz ishtirokida viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

— Biz Farg‘onadan katta natijalar kutamiz. Bu el tarixdan ilm, tartib, madaniyat, hunarmandlik bo‘yicha namuna bo‘lgan, — dedi Prezidentimiz.

Farg‘ona shahrida ochilgan kasb-hunarga o‘qitish markazi faoliyati bilan tanishgandan so‘ng “Yangi O‘zbekiston” massivining qurilish maydonida bo‘ldi. Massiv o‘rtasidagi 70 gektar maydonda Yangi O‘zbekiston bog‘i va sun’iy ko‘l tashkil etilishi ko‘zda tutilgan. Bugun ushbu ishlar to‘liq natijasi bilan aholini xursand qilmoqda.

2023-YIL: qat’iy nazorat va barqarorlik yili

Davlatimiz rahbari 2022-yil may oyida viloyatga tashrifi chog‘ida “Global textile infinity” klasterining ishlab chiqarish loyihasi bilan tanishgan edi. O‘shandagi ko‘rsatmalar asosida loyiha jadallashtirilib, dekabrda ishga tushirildi.

Prezidentimizning 2023-yil 2-fevral kungi Farg‘ona viloyatiga tashrifi Qo‘shtepa tumanidagi mazkur to‘qimachilik korxonasini ko‘zdan kechirishdan boshlandi.

Tashrif davomida Quvasoy shahridagi “Art soft ceramics” korxonasi, Farg‘ona shahridagi “Meridian” tibbiyot markazi, Marg‘ilon shahridagi “Oltin ipak karvonsaroyi” turistik markazini ham borib ko‘rdi.

Mamlakatimiz yetakchisi aholi hayoti, hududlar iqtisodiyoti bilan tanishish maqsadida 2023-yil 27-iyul kuni yana Farg‘ona viloyatiga keldi.

2020-yilda “Xayrullo Bahrom Boymatov” fermer xo‘jaligi tomonidan 75 gektarda uzumchilik plantatsiyasi tashkil etilgan edi. Davlatimiz rahbari ushbu tokzorni ko‘rgani keldi. Oldinlari bu maydonda paxta ekilib, o‘rtacha 25 sentnerdan hosil olingan. Endi uzumning narxi bilan solishtirganda, bir gektardan daromad qariyb 10 barobar oshgan.

Davlatimiz rahbari Bag‘dod tumanidagi Xitoy mahallasida bo‘lib, aholi turmushi bilan yaqindan tanishdi. Shu yerlik Abdug‘affor Halilov xonadonida mahalla vakillari bilan suhbatlashdi.

“Qo‘qon” erkin iqtisodiy zonasida “BNBM Building Materials Central Asia” korxonasi ochildi. Prezidentimiz ushbu korxonani ko‘zdan kechirdi.

Tashrifning ikkinchi kuni davlatimiz rahbari raisligida hududlarda huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig‘ilishi o‘tkazildi. Yig‘ilishda yo‘ldagi dislokatsiya tushunchasidan voz kechilib, barcha yo‘l-patrul xizmati xodimlari uchun mahallalarni qamrab oluvchi javobgarlik hududi belgilab qo‘yilgani ma’lum qilindi.

Farg‘ona shahridagi “Yangi O‘zbekiston” massivi qurilishi yana bir bor ko‘zdan kechirildi.

2024-YIL: o‘sish, rivojlanish va investorlar oqimi

2024-yil mart oyida Qo‘qon aeroporti yangidan ochilgan edi. O‘zbekiston Prezidentining samolyoti 11-iyul kuni ilk bor bu yerga qo‘ndi.

Sobiq Qo‘qon superfosfat zavodi moliyaviy sog‘lomlashtirish va diversifikatsiya qilish maqsadida 2019-yilda Singapurning “Indorama Holdings BV” kompaniyasiga investitsiya majburiyatlari bilan sotilgan edi. Uning negizida “Indorama Kokand Fertilizers and Chemicals” korxonasi tashkil etildi. Mamlakatimiz yetakchisi mazkur korxona faoliyati bilan tanishdi.

Shu kuni viloyatda rejalashtirilgan yangi investitsiya loyihalari ham taqdimot qilindi.

Sharoit va talabchanlik tufayli bugun barcha hududlarda ish sur’ati yuqori. Bir korxona ishga tushib, boshqalari qurilyapti. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarida loyihalar shunchalik ko‘pki, hammasiga ulgurish qiyin. Shu bois, davlatimiz rahbarining hududlarga tashrifi chog‘ida eng muhim loyihalarga to‘xtalish an’anaga aylangan. Farg‘ona viloyatida ham yangi korxonalarni ishga tushirish va qurilishini boshlash marosimi bo‘ldi.

— Ilgari viloyatda 6 ta loyiha qilish amri mahol edi. Bugun 6 milliard dollarlik loyihalar haqida gapiryapmiz. Nima uchun? O‘sdik, rivojlandik, investorlarni ishontirdik, sharoit yaratdik. Bunday ishlarni yana davom ettiramiz, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Mamlakatimiz yetakchisi Qo‘qon universitetida yaratilgan sharoitlar bilan ham tanishdi, universitet yonidagi Tepaqo‘rg‘on arxeologiya yodgorligini ko‘zdan kechirdi.

Shuningdek, Bag‘dod tumanidagi Yuksalish mahallasida bo‘lib, “Gulnora Matqulobod bodomlari” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Marg‘ilon shahrida aholi zich yashaydi. Yaqin kelajakda bu nufus oshib boradi. Yosh oilalarga va kelgusi avlodlarga munosib sharoit yaratish maqsadida Prezidentimiz shaharda yangi massiv qurish g‘oyasini ilgari surdi. Tashrif chog‘ida bu borada marg‘ilonlik nuroniylar, jamoatchilik vakillari bilan maslahatlashildi.

Tashrif chog‘ida Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan kasb-hunar maktabi ochildi.

Shu kuni Farg‘ona shahrida qurilayotgan “Yangi O‘zbekiston” massivini borib ko‘rdi. Massivni ekoshahar deyish mumkin. Sababi 70 gektar maydonda Yangi O‘zbekiston bog‘i, so‘lim xiyobonlar, sun’iy ko‘l, to‘rt ming o‘rinli amfiteatr barpo qilindi. Bog‘ hududiga buta va manzarali daraxtlar ekilgan. Turli attraksionlar o‘rnatilgan.

Quva tumanida 12-iyul kuni viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar muhokamasi yuzasidan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi.

Shundan so‘ng Prezidentimiz “O‘z-Segang” qo‘shma korxonasi bog‘ini ko‘zdan kechirdi. Tadbirkorning muammo va takliflarini so‘radi.

2024-yil 3-dekabr kuni poytaxtimizda Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash chora-tadbirlari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazildi.

2026-YIL: natijalar mo‘l, ko‘lam tagdor, aholi esa rozi

Prezidentimiz 2026-yil 4-fevral kuni poytaxtimizda Farg‘ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Yig‘ilishda So‘x tumanida Ugam va Miraki tajribasi asosida turizm majmualarini tashkil etish, Qo‘qon shahrida 17 ta davlat idorasini “Yangi O‘zbekiston” massiviga ko‘chirish, viloyat iqtisodiyotining muhim drayveri sifatida AT yo‘nalishni jadal rivojlantirish masalalariga to‘xtalib o‘tildi.

Prezidentimiz 2026-yil 9-aprel kuni So‘x tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan ham yig‘ilish o‘tkazdi.

2026-yil 27-aprel kuni esa Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurib, Qo‘qon shahridagi “Yangi O‘zbekiston” massividagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Farg‘ona vodiysida Qo‘qon, Namangan, Andijon va Marg‘ilon shaharlarini bog‘lovchi yangi elektropoyezdda Prezidentimiz jamoatchilik vakillari bilan birga Qo‘qon shahridan Marg‘ilon shahriga keldi.

Quvasoy shahridagi “Crown Ceramic” qo‘shma korxonasida keramogranit plitalar ishlab chiqarish jarayoni hamda “Quva agrostar” korxonasi faoliyati bilan tanishdi.

Davlatimiz rahbari “Quva agrostar” erishgan natijalarni yuqori baholadi, viloyatda 50 ming gektar yer maydonida tajriba tariqasida ilg‘or agrotexnologiyalarga asoslangan qishloq xo‘jaligi tizimi joriy etilishi belgilandi.

Shuningdek, Quva tumanida agrovoltaika texnologiyasi joriy etilgan qishloq xo‘jaligi majmuasi va “Karkidon” suv ombori hududida barpo etilgan yangi turizm majmuasida amalga oshirilayotgan loyihalar bilan tanishdi.

Bu maskan Farg‘ona vodiysida yozgi dam olish, ekoturizm va faol hordiq chiqarish uchun eng jozibador manzillardan biriga aylanishi kutilmoqda.

Tumandagi 1-texnikumda yoshlarni zamonaviy kasblar va xorijiy tillarga o‘qitish ishlari bilan tanishdi.

Prezidentimiz Farg‘ona viloyatining gavhari bo‘lgan Marg‘ilon shahridagi “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasida barpo etilgan madaniyat hamda xizmat ko‘rsatish obyektlarini borib ko‘rdi.

Majmuada “Otabek va Kumush uyi” muzeyi ham tashkil etilgan. Uning devorlarida “O‘tkan kunlar” romani sahnalari jonlantirilib, adabiyot va tarixni uyg‘unlashtirgan noyob muhit yaratilgan. Shuningdek, maqom teatri, shoir va rassomlar xiyoboni hamda kutubxona ham joy olgan.

Shu kuni ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasining tantanali ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Unda Prezidentimiz ishtirok etib, nutq so‘zladi.

Davlatimiz rahbari tashrifning ikkinchi kuni Farg‘ona shahridagi Investorlarga xizmat ko‘rsatish markazi faoliyati bilan tanishdi va viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari yuzasidan yig‘ilish o‘tkazdi.

Shuningdek, Farg‘ona shahridagi AT park majmuasida yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishib, “Neftchi” bolalar futbol akademiyasida bo‘ldi.

Farg‘ona xalqaro aeroportini rivojlantirish konsepsiyasi taqdimoti o‘tkazildi.

Yuqoridagilardan ko‘rib turganingizdek, davlatimiz rahbarining bir viloyatga yoki bir sohaga e’tiborini bitta maqolada qamrab olish imkonsiz. Lekin qisqa satrlarda bo‘lsa ham islohotlar dinamikasini ko‘rsatishga urinib ko‘rdik.

Haqiqiy manzarani bilmoq istasangiz, Farg‘onaga boring! Farg‘onaliklar bilan suhbatlashing, ularning yuzidagi, ko‘zidagi, hayotidagi o‘zgarishlarni yaqqol ko‘rasiz.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”sida bir muddat So‘xda yashagani haqida qimmatli bitiklar qoldirgan. Go‘zal tabiat, mehmondo‘st odamlar bilan bog‘liq xotiralari bugun ham qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Hududlar hayoti

SO‘XDA BUGUN HAMMA NARSA O‘ZGARGAN...



Sherzod QORABOYEV olgan suratlar.

Purviqor tog‘lar, tiniq buloqlar, jo‘shqin soylar, yashillikka burkangan xushmanzara tabiat ko‘hna So‘xning tashrif qog‘ozi. Bu yerda bo‘lgan kishi uning betakror tabiati, samimiy va tanti odamlarining ish faoliyati, turmush tarzi, ilmu ma’rifatga mehridan bahra oladi.

Qadim go‘shani bundan yetti-sakkiz yil avvalgi holati bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Yo‘llar ravon bo‘lyapti, suv, elektr ta’minotini yaxshilash, zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini yaratish, tadbirkorlik va hunarmandlikni rivojlantirish borasida yillarga tatigulik ishlar amalga oshirildi. O‘tgan yilning o‘zida 14 mingdan ortiq yangi ish o‘rni yaratildi, ikki mingga yaqin oila kambag‘allikdan chiqarildi. Ko‘lami keng islohotlar haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Har kuni bir o‘zgarish, yangilik bo‘y ko‘rsatmoqda, tashabbuslar quloch yozyapti. Bu bejiz emas, albatta.

— Prezidentimiz joriy yil 9-aprel kuni So‘x tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazgan yig‘ilish hayot tarzimizda yangi imkoniyat eshiklarini ochdi, — deydi tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev. — Yaqingacha So‘xda ko‘p qavatli uylar quriladi desa, hech kim ishonmagan. Bugunga kelib “Chashma”, “Devayron”, “Navobod” mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida turar joylarga hayrat va havas bilan boqasiz. Yer osti konlaridan foydalanish borasida yangi loyihalarni amalga oshirishga kirishildi, qishloqlarga sanoat kirib bormoqda. Endi xomashyo emas, tayyor mahsulot ishlab chiqarish ko‘lami oshdi. “Qal’acha” mahalla fuqarolar yig‘ini Javpoya massividagi travertin konida pardozbop tosh qazib olish va qayta ishlash loyihasi amalga oshirilyapti. Bu yerda So‘x daryosidan 223 metr balandlikka suv chiqarilib, Javpoyaga obihayot olib kelindi. Sekundiga 200 litr suv tortish quvvatiga ega 5 ta nasos stansiyasi qurildi. Natijada 1000 gektar yer foydalanishga kiritilyapti. Qayroq massiviga ham suv olib chiqilib, asrlar davomida e’tibordan chetda qolgan qarovsiz yerlar yashillikka burkandi, yangi mevali bog‘lar bo‘y ko‘rsatdi.

Katta muammolardan biri — ishsizlik va kambag‘allik. Bugungi kunda kambag‘allik darajasi 7,9 foiz, ishsizlik 5,5 foizni tashkil etib, hali ham respublikadagi o‘rtacha darajadan yuqori. O‘tgan qisqa vaqtda bu yo‘nalishda ko‘plab loyihalarga qo‘l urildi. Asosiy maqsad aholi bandligini ta’minlash, daromad topishiga ko‘maklashish orqali tumanni ishsizlik, kambag‘allikdan xoli hududga aylantirishdir. Shu maqsadda to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiya va xorijiy kreditlarni o‘zlashtirish hisobiga umumiy qiymati 62,6 million dollar bo‘lgan 29 ta loyiha amalga oshirildi. Xorijlik investorlar bilan marmar qazib olish, turizm tarmoqlari tashkil etish, mikro GESlar qurish yo‘lida istiqbolli loyihalar ro‘yobga chiqarilyapti.

Zahiriddin Muhammad Bobur “Boburnoma”sida bir muddat So‘xda yashagani haqida qimmatli bitiklar qoldirgan. Go‘zal tabiat, mehmondo‘st odamlar bilan bog‘liq xotiralari bugun ham qadr-qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Qo‘shni davlatlar bilan yo‘lga qo‘yilgan o‘zaro bordi-keldi, chegaradan o‘tishda yaratilgan qulayliklar tumanda turizmni rivojlantirish orqali sayyohlar oqimini ko‘paytirishga xizmat qilmoqda. Jumladan, eko va tibbiy turizm, xizmat ko‘rsatish kabi sohalarni rivojlantirish loyihalari amalga oshirilyapti. Xususan, Sarikanda, Ravon va Istiqlol mahallalari hududidan o‘tuvchi So‘x daryosi bo‘yida zamonaviy turizm obyektlari barpo etish rejalashtirilgan. Shuningdek, 130 gektar maydonda yirik ekokurort majmuasi qurilishi boshlanish arafasida.

Istiqbolli loyihalardan biri — “AK-MUS” turizm majmuasining umumiy maydoni 60 gektar. Loyiha tashabbuskorlari aka-uka tadbirkorlar A’zamxon va Valixon Qoziyev bo‘ladi. Ular bir necha yil mehnat migranti sifatida xorijda ishlagan. Mamlakatimizda tadbirkorlik va ishbilarmonlik loyihalarini qo‘llab-quvvatlash yo‘lida yaratilgan imkoniyat va imtiyozlar ikki o‘g‘lonni bir maqsad yo‘lida birlashtirdi. Bu yerda umumiy qiymati qariyb 100 milliard so‘m bo‘lgan zamonaviy majmua qurilishi boshlangan.

— Majmua nafaqat So‘x, balki butun mamlakatimiz umumiy turizm salohiyatini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin, — deydi tadbirkor Valixon Qoziyev. — Barcha kuch va imkoniyatlarimizni ishga solib, bu yerni jahon andozalariga mos obod maskanga aylantiramiz. Buning uchun sharoit va imkoniyatlar yetarli. Ayni kunda loyihamizning ilk namunalarini ishga tushirdik. Natijalar kutganimizdan ham yaxshi.

Loyiha doirasida sun’iy qoplamali o‘yingoh, tennis kortlari, karting va peyntbol maydonlari, hovuz, avtoturargoh, chang‘i yo‘laklari, ovchilik hamda turli dam olish uylari qurilishi rejalashtirilgan. Ayni paytda esa bog‘lar barpo etilyapti, sun’iy sharshara, zamonaviy dam olish maskanlari, kapsulali uylar allaqachon mehmonlar xizmatida.

— Bu yerda yangi turizm-ko‘ngilochar dam olish maskani yaratilganini eshitib, oila a’zolarimiz bilan dam olgani keldik. Salqin havo, keng dalalarda sayr qilishning gashti bo‘lakcha, — deydi “Oftobro‘” mahalla fuqarolar yig‘inida istiqomat qilayotgan Islomiddin Ismoiljonov. — O‘n yil avval So‘x tumaniga mamlakatimiz taraqqiyotidan uzilgan hudud sifatida qaralgan. Iqtisodiy qiyinchiliklardan tashqari infratuzilma bilan bog‘liq muammolar sillamizni quritgan. Yangi davr nafasi so‘xliklar hayot tarzida ulkan o‘zgarishlar yasadi. Jumladan, qo‘shni respublika bilan oradagi chegaradan o‘tish tizimi yaxshilandi, suv yetib bormagan, asfaltlanmagan ko‘chalar qolmadi hisob. Mana shu dala-dashtlar bir kun kelib obod dam olish maskaniga aylanadi desa, hech kim ishonmasdi. Bugun o‘zimiz guvohmiz bunga. Bular so‘xliklar hayot tarzini yanada yaxshilash yo‘lidagi ishlarning debochasi desam, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Tog‘lar bilan tutashgan qir-adirlarda qurilayotgan ko‘ngilochar maydonlar dam oluvchilar bilan gavjum, fayzli. Elektr tarmoqlari tortib kelindi. So‘x tuman yo‘llardan foydalanish davlat unitar korxonasi avtomobil yo‘li va piyodalar yo‘laklari qurilishini jadallashtirgan.

— Ilgari transport va logistika imkoniyatlari cheklangan, iqtisodiy aloqalar zaif bo‘lgan hududda taraqqiyotning yangi bosqichi boshlangan, — deydi tuman hokimi o‘rinbosari Adhamjon Safarov. — Joriy yilda 40 million dollar investitsiya jalb qilish, eksport hajmini oshirish orqali yangi ish o‘rinlari yaratish asosiy maqsadimiz. 2026-yilning birinchi choragi tumanimiz uchun iqtisodiy faollik, tadbirkorlik tashabbuslari va ijtimoiy taraqqiyot nuqtayi nazaridan samarali davr bo‘ldi. Statistik ko‘rsatkichlar tahlili hududda iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida ijobiy o‘sish sur’atlari saqlanib qolayotganini ko‘rsatmoqda. Shu kunga qadar 34,8 milliard so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu o‘tgan yilning mos davridagidan 12,3 foiz ko‘p. Investitsiya muhiti ham yildan yilga yaxshilanib bormoqda. Bugunga qadar asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiya hajmi 40,9 milliard so‘mga yetdi.

Ayniqsa, xorijiy investitsiya va kreditlar ulushi ortishi So‘xning iqtisodiy salohiyatiga ishonch mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Eksport hajmi 1,9 million dollarga yaqinlashib, o‘tgan yildagiga nisbatan qariyb 70 foiz o‘sdi. Eksportning asosiy qismi oziq-ovqat mahsulotlari va chorva hissasiga to‘g‘ri keldi. Rossiya, Qirg‘iziston, Belarus va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari kengayib bormoqda.

— Yetmish uch yoshga kirdim, — deydi “Yangiariq” mahalla fuqarolar yig‘inida yashovchi Xosiyatxon Sultonova. — Esimni taniganimdan buyon So‘x daryosidan suv tashib ichganmiz. Yozda chang, qishda loy, muzlama ko‘chalarda yurish qiyin edi. Sal shamol tursa, chiroq o‘chib qolardi. Qo‘shni shahar va tumanlarga borib kelishdagi qiyinchiliklar odamlarning sillasini quritgan. Bir so‘z bilan aytganda, farovon hayotdan uzilib qolgandik. Bugun hamma narsa o‘zgardi. Istalgan manzilga emin-erkin borib kelyapmiz. Yo‘llarimiz asfaltlandi, piyodalar uchun alohida yo‘laklar yotqizilgani ayni muddao. Yo‘lsozlarga rahmat, ko‘chalarimiz tunlari ham kunduzgidek charog‘on. Bunday o‘zgarishlar bo‘lishini avvallari faqat orzu qilardik.

Tuman iqtisodiyotida qishloq xo‘jaligi muhim o‘rin tutadi. Shu bois, zamonaviy agrotexnologiyalarga e’tibor kuchaygan. Qayroq massividagi Demursad mahallasi hududida 100 gektar maydonda qora olxo‘ri bog‘i barpo etildi. Erta ko‘klamda ekilgan ko‘chatlar rivoji avjida.

— Ilgari bu yerlardan faqat yaylov sifatida foydalanilgan. Endi esa zamonaviy bog‘dorchilik asosida yuqori hosil olish imkoniyati yaratilmoqda, — deydi tuman hokimining qishloq xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari Muslimbek Mavlonbekov. — Loyiha doirasida suv ta’minoti tizimi yangilanib, 200 ta yangi ish o‘rni yaratiladi. Bu yerda sarxil mahsulotlar yetishtirish bilan birga ularni saqlash, qayta ishlash va qadoqlash singari istiqbolli loyihalar ham amalga oshiriladi. “Hushyor” mahalla fuqarolar yig‘inida “Bir kontur — bir mahsulot” tamoyili asosida kooperatsiya yo‘lga qo‘yilib, kartoshkachilik va asalarichilik rivojlantirilmoqda.

Sirasini aytganda, So‘x endi chekka hudud emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy-ma’rifiy va turizm tarmoqlari rivojlanayotgan yangi makonga aylanib bormoqda.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yo‘lchiroq

Ayol baxti – JAMIYAT KAMOLI

Dilshoda ERGASHEVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg‘ona viloyati bo‘limi rahbari

Onam quyosh uyg‘onmay turib supur-sidirni boshlardi, sigir sog‘ib, bizga nonushta tayyorlab, dalaga oshiqar, qaytishida chorva uchun bir etak o‘t ko‘tarib kelib, yana o‘choq boshiga chopardi. Ro‘zg‘ordagi hamma ishga ulgurgan, barcha narsaga javobgar kishi onam edi, nazdimizda. Kim bilsin, “Ayollarning joni qirqta” degan ma’nosiz naql sobiq tuzumning “bayrog‘i” bo‘lgandir balki.

Tarixga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ayollar erkaklarga nisbatan kamsitilgani, jamiyatni boshqarish ishlaridan chetlatilgani rost. Ularga ojiza, biror jiddiy ishga qodir bo‘lmagan inson sifatida qarab kelingan. Asrlar davomida ayollar faqat farzand ko‘rish, parvarishlash, ro‘zg‘or yuritish bilan cheklangan...

Esimni taniganimdan televizorda chiqadigan suxandonlarga havasim ortgan negadir. Lekin otam bu orzularimga avvaliga judayam qarshi bo‘lgandi. Chunki bizning qishloqda qizlar suxandon bo‘lish u yoqda tursin, o‘qituvchilikka o‘qishi ham alohida hodisa edi. 2008-yilda maktabni tugatdim va 60 bitiruvchidan atigi 2 qiz oliy ta’lim dargohi talabasiga aylandik. Bugun esa Oltiariq tumani chekka qishloqlaridan birida men o‘qigan 28-umumiy o‘rta ta’lim maktabining 50 foizdan ortiq o‘quvchisi tanlagan yo‘nalishlari bo‘yicha milliy va xalqaro sertifikatlarni qo‘lga kiritib, muddatidan oldin talabalik maqomiga erishmoqda. Ularning asosiy qismi singillarim, ya’ni shu qishloqning oddiy fozila qizlari ekani ko‘nglimni tog‘ qiladi.

Bugun qishloq va shahar ayoli degan atamalar ancha eskirdi hisob. Nega desangiz, ayni damda mamlakatimiz, xususan, viloyatimizdagi islohotlar, avvalo, ana shu chekka hududlarda aks sado bermoqda. Chekka mahallalarda ham markazdagi baland binolar bilan bellasha oladigan tadbirkorlik, o‘quv markazlari, ko‘p qavatli shinam uylar, ko‘ngillarga zavq bag‘ishlayotgan maskanlarni ko‘rib, shu joylarda yuzga kirib yurgisi keladi odamning.

Bilasizmi, eng ahamiyatlisi bu ilm va ishbilarmonlik markazlarining katta qismida xotin-qizlar rahbarlik qilayotgani, ularning tashabbusi, mehnati e’zoz topayotganida. Endi men tug‘ilib o‘sgan mahallaning qizlari uchun ham ilm olish, yangi loyihalarni amalga oshirishga hamma imkoniyat hoziru nozir ekani bizni behad quvontiradi.

* * *

Rishtonning azim dalalarida o‘smir qizning traktor minib, dehqon otasi yoniga kirgani mahallada duv-duv gap bo‘ldi. Bir safar bu shaddod qiz katta mashinaning rulini adashib, ayni yetilgan polizning ustiga haydab yuborganda ham otasi achchiqlanmadi. Chunki uning yerga shijoati, nabotot olamiga otameros mehri bor edi. Bu qiz tushmagur uy supurib, somsa yopishdan ko‘ra, katta-katta maydonlarni shudgorlab, bug‘doyga suv tarashni qoyillatar edi. Oilada o‘g‘il farzand yo‘qligi va Gulira’no kenja farzand bo‘lgani uchun otasining joniga malham bo‘lgisi, qo‘lidan ishini olgisi kelardi va shunday ham bo‘ldi.

2017-yilda qishloq xo‘jaligi yo‘nalishida oliy dargohga o‘qishga kirdi. Bu nuktadon qizning ilmga hamohang otasi obod qilgan “Xoliqov Yo‘lchiboy” fermer xo‘jaligidagi amaliyoti o‘z hosilini berib, Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi bilan taqdirlandi. 2016-yilda Yo‘lchiboy aka o‘zining sharifi bilan nomlangan fermer xo‘jaligini rasman Gulira’noga topshirdi.

— Men tuproqni, tabiatni sevdim. Esimni taniganimdan buyon dalama-dala yurib, otamning izidan qolmasdim. Urug‘ yerga tushib, xirmon uyilgunga qadar bo‘lgan mashaqqat zavqi, otamga o‘g‘ildan-da ziyodroq farzand bo‘lish niyati meni tinch qo‘ymas edi. Cheksiz dalalarga boqib, yurt otasi oldida so‘zga chiqishni, u insonga aytadigan gaplarimni ko‘ngildan ko‘p bor o‘tkazardim. Lekin bu uchrashuv uzoq yillar narida bo‘ladi degan xayol bor edi menda, — deydi Gulira’no Xoliqova ko‘zlari porlab.

Ha, bu orzular bepoyon kengliklarda qolib ketmadi. Gulira’noning mehnati va bilimdonligi bilan tog‘ bo‘lgan xirmonlar raqamlarda mamlakatimiz yetakchisi nazariga tushdi. 2023-yilda davlatimiz rahbarining Farg‘ona viloyatiga tashrifi chog‘ida Prezidentimiz bilan uchrashdi. U “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlandi va fermerlik faoliyatiga hamohang tarzda yangi bunyod etilgan, O‘zbekiston Qahramoni Lola Murotova nomidagi qishloq xo‘jaligi texnikumiga rahbar etib tayinlandi. Bu qishloq qizi shuncha yutuqlar bilan cheklanib qolganiga ishonmang. Gulira’no hozir qishloq xo‘jaligi bo‘yicha yosh olimalardan biri, eng muhimi, bir baxtiyor oilaning bekasi, shiringina qizaloqning onasi ham. Bugun ayol mehnati qadr topayotgan, xotin-qizlarning ilmga qiziqishi qo‘llab-quvvatlanayotgan jamiyatda hademay Gulira’noning ism-sharifi ham eng yosh professorlar qatoridan o‘rin olishi shubhasiz.

* * *

Farg‘onaga kelgan borki, qizlarning shirin suxani, so‘zidagi takallufidan shavqi oshib, Uvaysiy, Nodiralarni esga oladi.

Go‘zal Oxunova yuragida ana shu ilm va ma’rifat nafasi jo‘sh urib turgan fozila qizlardan. Quvadagi so‘lim qishloqda shamolning jilovini tutgan, zuvalasi quyoshning tig‘ida pishgan.

— Biz qishloqda saharlab turib, to maktab paytiga qadar mol, qo‘y-echkilarni dalada o‘tlatib qaytardik. Bu orada bir etak o‘tni yelkamizga qo‘yib kelishga ham ulgurganmiz. O‘shanda adirlar ustiga chiqib she’rlar aytganimda, bir kuni she’rlarim kitobga aylanishini orzu qilardim, — deydi shoira qiz.

Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi va bugunga qadar ko‘plab she’riy, ilmiy asarlar muallifi, ayni damda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi bo‘lgan Go‘zaloy adabiyotshunoslik yo‘nalishida dovruq solib kelayotgan yosh olimalardan. “Qo‘llov bo‘lmasa, Quvaning bir chekkasida tug‘ilgan, etagida uchta bolasi bilan jurnalistika, adabiyot, ilm yo‘nalishida bo‘laman deb qasd qilgan men va men kabi qizlarning natijaga erishishi amri mahol aslida”, deya fikrini she’rga soladi shoira.

Bugun yurtdoshlarimiz ongu tafakkuri yuksalmoqda, ertangi kunga umidi mustahkamlanib, yashash tarzi farovonlashmoqda. Ayniqsa xotin-qizlarga hurmat ko‘rsatish, turmushini yengillashtirish, jamiyatning faol va to‘laqonli a’zosi sifatida emin-erkin yashash, tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashga e’tibor oshdi. Ular nafaqat oila baxti, balki kundalik hayotimizning faol a’zolariga aylandi. Bularning barchasi inson qadr-qimmati yuksalib borayotganidan dalolat.

Ayol — ona, millat tarbiyachisi. Oqila, olima onalar ulug‘larni kamolga yetkazishi rost. Bu borada xotin-qizlar va ularning har qaysi sohadagi faoliyati rag‘bat, e’zoz topishi mamlakat yangi buyuk rakurslarda bo‘y ko‘rsatishiga xizmat qiladi. Farg‘onada bunday ishbilarmon, tadbirli, ma’rifatli opa-singillarimiz behisob. Tomirida To‘marisu Qurbonjon dodxohlar qoni jo‘sh urib turgan yurtimiz xotin-qizlari hamma yo‘nalishlarda O‘zbekiston iqboliga kamarbasta bo‘lishga shay.

So‘zimni iste’dodli shoira Go‘zal Oxunovaning ushbu satrlari bilan tugallashni istardim:

Osmonni to‘ldirib, tog‘dek kelyapman,
Gurillab yo gullab, bog‘dek kelyapman,
Senga biror nafim bor deb kelyapman,
O‘zbekiston, xizmatingni ayt menga,
Farzand bo‘lib bajarmoqlik shart menga.

Yursam qadamimdan chaqmoq chiqadi,
Ko‘ksimdagi o‘tlar porloq chiqadi,
Sen desam, qo‘limda bayroq chiqadi,
O‘zbekiston, istagingni ayt menga,
Farzand bo‘lib bajarmoqlik shart menga.

Dengiz ilinjida daryolar toshar,
Qalbda yoshlik degan dunyolar toshar,
Bag‘ringda or ichgan olovlar yashar,
O‘zbekiston, tilagingni ayt menga,
Farzand bo‘lib bajarmoqlik shart menga.

To‘marisdek yovqur, otashligim bor,
Belimda qirq qilich, qirq sochligim bor,
Mustaqil Vatanga tengdoshligim bor,
O‘zbekiston, xizmatingni ayt menga,
Farzand bo‘lib bajarmoqlik shart menga.

2026-yil 7-iyul, 136-son

YANGI O‘ZBEKISTON

Movarounnahr diyori, jumladan, Farg‘ona vodiysidan yetishib chiqqan olimlar islom olamining yo‘lchi yulduzlariga aylangani tarixdan ma’lum. Islom olamida dong taratgan mashhur yurtdoshlarimizdan biri — fiqh, ya’ni islom huquqshunosligi ilmining eng zabardast allomalaridan “Burhoniddin val milla” nomi ila sharaflangan buyuk faqih Imom Abulhasan Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljamil al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘inoniydir.

QADIM KENTNING HIKMAT JAVOHIRI

“Burhoniddin Marg‘inoniy” majmuasining me’moriy go‘zalligi

Ocherk

Namozshom. Bizni “Burhoniddin Marg‘inoniy”ga olib borayotgan haydovchining bir soniya bo‘lsa-da, og‘zi tinmaydi. Yo‘l bo‘yi askiya qiladi, qiziq gaplarni aytadi. Ikki yil oldin bu muhtasham majmua o‘rni sho‘rayu yantoqdan bo‘lak narsa o‘smaydigan bo‘z yer bo‘lganini, bir kechada ustiga baxmal gilam to‘shalgan-u, fusunkor shaharcha olib kelib qo‘yilganini, endi Marg‘ilonga shunchaki kirib bo‘lmasligini aytib maqtanar, hodisalarni bo‘rttirib so‘zlab berayotganidan o‘zi ham zavqlanar edi.

Uni tinglab, bir joyda o‘qiganim qiziq voqea esimga tushadi. Bir kuni savdogar kichkina o‘g‘lini otga mingashtirib, O‘shdan Qo‘qonga qarab yo‘l oladi. Marg‘ilonning Taqachilik dahasiga yetganida “Qani endi otdan tushing, o‘g‘lim, bu yerlarda otda yurib bo‘lmaydi, Marg‘ilonga kirib kelyapmiz”, deb bolasini dast ko‘tarib otdan tushirib qo‘yadi. Bolakayning oyog‘i qavarib ketadi, yig‘laydi, xarxasha qiladi, lekin to Marg‘ilondan chiqib ketgunicha otasi uni otga mindirmaydi. Shahar qiblasidagi bir dahadan o‘tgandan so‘ng “Endi otga minsak bo‘ladi, toychog‘im, qani, keling-chi”, deb o‘g‘lini Qo‘qonga olib ketadi.

Marg‘ilonning o‘zgacha muhiti mana shunday qutlug‘ zaminda kamol topgan qanchadan qancha orif zotlarning, avlodlarining barakoti, hidoyati sharofati bilan shakllanganiga tobora ishonib borarkanman, bu paytda sheriklarim haydovchidan hududga nega Marg‘ilon nomi berilgani, bu so‘z nimani anglatishini so‘radi. Zukko odam ekan, shartta o‘z mulohazasini bildirdi: “Marg‘” — maysazor, o‘tloq degan ma’noni anglatishini bilaman, shunda Marg‘ilon — yaylovzor mazmunini beradi, yanayam olimlar anig‘idan xabardor”. Agar biror nom joy, xalq, aholining faoliyati, taqdiri bilan bog‘liq ravishda yuzaga kelishini hisobga olsak, bu farazda jon bor. Shahar Marg‘ilonsoy havzasidagi kenglikda, unumdor zaminda paydo bo‘lgan.

Marg‘ilon nomining kelib chiqishi mahalliy xalq orasida shoh Iskandar nomi bilan bog‘lanishi to‘g‘risidagi rivoyatlar mavjud ekani yodimga tushadi. Internetdan elektron shaklini yuklab olaman-u, qo‘ynida tilla berkitayotgan odamdek bukilib o‘qiyman. Is’hoqxon Ibratning “Hazrati Iskandar zamonlarida aqsoyi sharqg‘a borganlarida Farg‘ona yerida bir-ikki Forsistondan muhojir bo‘lib kelib o‘ltirgan bechora dehqoni bodiyanishinlar bor ekan. Podshohga arzi ahvol qilmoq bo‘lib, peshkash uchun nonu tuz o‘rnig‘a bisotlaridagi tovuqlarini pishirib hazrati Iskandarga tutgan ekanlar. Anda hazrati Iskandar savol qilubdurlarki, bu nimadur, deb. Anda arz qilg‘uvchilar forsiy lafzda javob berubdurlarki murg‘u non, ya’ni tovuq bilan non deganlarida, podshoh Iskandar arzlaring nimadir, deganlarida: “Arzimiz, bul turg‘on joyimizni shahar qilib bersangiz”, deganlarida, umarolari ichidan bir bofarosat sohibi aql kishini ta’yin qilib, shahar qilmoqg‘a amr qilg‘on ekanlar. Ul kishining oti Farg‘ona bahodir ekan. Ul kishi necha yillar harakat qilib, har shahardan va har xonadan odam olib, o‘tquzub, oti “harxona” deb qo‘yub, “harxona”ni Farg‘ona o‘qub, parxona, parg‘ona deb o‘qub va ham ul muassis kishini ismi qaviyroq bo‘lib, Farg‘ona umumiy iqlimga ismdur. Chunonchi, munga dalil Marg‘inonda podshoh Iskandar degan iydgoh mazor bordur, ul kishi tushgan yerlardur”.

Bunday ma’lumotlar, shubhasiz, rivoyat bo‘lsa-da, unda qayd etilgan “dehqon”, “bodiyanishin”, “non” va “murg‘” kabi so‘zlarda Farg‘ona vodiysi, xususan, Marg‘ilonsoy vohasining tabiati, aholisining tili, ijtimoiy va xo‘jalik hayoti umumiy manzarasi aks topgan.

Oriflar sandig‘i

Asrlar mobaynida Marg‘ilon islom olamiga olimu fozillarni yetishtirib berdi. Marg‘ilonlik ulamolarning fiqh, qiyos, tarix ilmiga qo‘shgan hissasi beqiyos. Shuning uchun ham Marg‘ilon “Sunduq ul-orifiyn” (Oriflar sandig‘i) nomi bilan sharaflanadi.

Xitoydan boshlangan Buyuk ipak yo‘li O‘rta yer dengizi havzasidagi yo‘lkalargacha borib yetgan. Jumladan, Rim imperiyasi savdogarlari ushbu yo‘ldan o‘z manfaati uchun foydalangan. Bu yo‘lning Farg‘ona — Qashqar yo‘nalishi hatto XIX asrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shuning uchun vodiydagi iqtisodiy va madaniy hayotda bu savdo yo‘lining ahamiyati katta bo‘lgan. Ayniqsa, VII asr boshlarida Farg‘ona ixshidi (hokimi) va Xitoy imperatorlari orasidagi diplomatik aloqalar yanada keng yo‘lga qo‘yilgan. Karvonlar vodiy orqali o‘tib, bu yerdagi shaharlarda savdo-sotiq ham qilgan.

VII-IX asrlarda farg‘onaliklar bog‘barpo etishda anchagina muvaffaqiyatga erishgan. Xitoy manbalariga ko‘ra, imperator saroyiga Farg‘ona diyoridan ko‘plab nodir daraxt turlarini olib kelib o‘tqazish odat tusiga kirgan. Shunday daraxtlardan biri haqida xitoy manbalarida juda ko‘p gapirilgan. Bu daraxtning nomi xitoy tilida “Sol” deb atalgan. Xitoyliklar Farg‘onadan keltirilgan bu daraxtdan qurol-yarog‘ yasashda foydalangan. Sol daraxti xitoyda noyob bo‘lib, uni ko‘paytirish maqsadida imperator maxsus farmon chiqargan. “Tan xonadoni tarixi” asarida keltirilishicha, VIII asr o‘rtalarida imperatorning Farg‘onadagi vakili Xitoyga bir necha yuz tup sol daraxti ko‘chatidan yuborgan. Farg‘ona hukmdorlari va Xitoy imperatorlarining bir-biriga ko‘plab qimmatbaho buyumlar yuborib turishi odat tusiga kirgan. Masalan, 737-yilda Xitoy malikasiga Farg‘ona hunarmandlari tomonidan ishlangan va hayratomuz bezatilgan koptoklar jo‘natilgan edi. Bunday koptoklar malikaning eng sevimli o‘yinchog‘iga aylangan. Bundan tashqari, Farg‘onada ishlab chiqarilgan turli-tuman soch bo‘yoqlari ham xitoy ayollarining suyukli attorlik mollaridan edi. Ayniqsa, Farg‘onada ishlab chiqarilgan shisha idishlarning Xitoyda narxi juda baland bo‘lgan.

XI-XII asrlarda Buyuk ipak yo‘lining shimoliy Farg‘ona orqali o‘tgan tarmog‘i Axsikentdan so‘ng ikkiga bo‘lingan. Biri Miyon Rudan orqali O‘zgand tomon yo‘nalgan bo‘lsa, ikkinchisi Marg‘ilonga borgan. Janubiy So‘x Haydarkon hududida tog‘-kon sanoatining tezkorlik bilan rivojlanishi natijasida Buyuk ipak yo‘lining Janubiy Farg‘ona (Xo‘jand — Rishton — Qubo — O‘sh) orqali o‘tgan tarmog‘i XI asrdan boshlab So‘x — Haydarkon — O‘hna — Qadamjoy — Vodil orqali o‘tib Marg‘ilonga kelgan. Tabiiy ekologik sharoitning qulayligi hamda Farg‘ona orqali o‘tgan Buyuk ipak yo‘lining shimoliy va janubiy tarmoqlari Marg‘ilon orqali o‘tishi XI-XIII asr boshlarida uni eng buyuk shaharlardan biriga aylantirdi.

Go‘ri avval

Ufq gardishidan bir terak bo‘yi balandlikda muallaq turgan quyosh nurlari mevali daraxtlarni bo‘yagan, tandirday qizdirgan kunda sillasi quriyozgan shaharni kechki olag‘ovur va jonsaraklik tutgan, bir qadar salqin shabada esa boshlagani uchun ko‘kda qaldirg‘ochlar shodiyonasi avjida. Majmuani ko‘rishimiz bilan bir narsaga amin bo‘ldik: ne-ne bek-to‘ralar, alloma-ashraflar, yoqavayron gadoyu qalandarlar, alamnok oshiq majnunlar, hunarmand-ziroatchilar karvoni tinmagan bu hududning bugun mutlaqo o‘zgacha qiyofa kasb etishi shaharga tarixiy qudratini yangi quvvatda, yangi uslubda qaytaribdi.

Marg‘ilon, avvalo, hunarmandlar shahri sifatida hamda fozil-ulamolari nomi bilan o‘tmishda dong chiqargan Farg‘ona vodiysi shahrining nomidir.

Qolaversa, o‘rta asrlarda islom huquqshunosligi rivojiga beqiyos hissa qo‘shgan Burhoniddin Marg‘inoniydek buyuk allomalar diyori. Marg‘ilon o‘z boshidan qora kunlarni kechirgan davrlarda ham odamlar uning ulug‘vorligini doimo yodda saqlagan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, hozirgi kunlarda ham xalq orasida uning nomini e’zozlovchi har xil hikoyalar, ulug‘ shaxslar nomi bilan bog‘liq rivoyatlar saqlanib qolgan. Marg‘ilonning hozirgi go‘zal bog‘-rog‘lari, kamalak shu’lasidek rang-barang tovlanuvchi atlas-adraslari, mashhur hofizlari kuylagan mumtoz navolar uning uzoq o‘tmish madaniyatining yorqin timsolidir.

O‘rta asrlarda “Ilm daraxtining asosi Makkada, ammo hosili Xurosonda pishadur” degan naql mashhur bo‘lgan. Binobarin, Movarounnahr diyori, jumladan, Farg‘ona vodiysidan yetishib chiqqan olimlar islom olamining yo‘lchi yulduzlariga aylangani tarixdan ma’lum. Islom olamida dong taratgan mashhur yurtdoshlarimizdan biri — fiqh, ya’ni islom huquqshunosligi ilmining eng zabardast allomalaridan “Burhoniddin val milla” nomi ila sharaflangan buyuk faqih Imom Abulhasan Burhoniddin Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljamil al-Farg‘oniy ar-Rishtoniy al-Marg‘inoniydir.

Ta’kidlanganidek, “sohibi Hidoya” diniy ilmlarning barchasini egallagan qomusiy olim edi. U huquqshunos, tarixchi, tilshunos va adabiyotshunoslik fanlarini mukammal egallagan. Masalan, u “Kitob ul-mashoyix” asarida zamonasining mashhur shayxlari to‘g‘risida yozar ekan, tarixchi olimlar singari ma’lumot beradi. Qolgan sohalarda uning iste’dodi “al-Hidoya” asari orqali yaqqol namoyon bo‘ladi. Huquq, til va adabiyot qonunlariga to‘la asoslangan holda bitilgan mazkur asar o‘zining mukammalligi bilan ham shuhrat qozongan. Burhoniddin Marg‘inoniyni dunyoga tanitgan asar “al-Hidoya” ekanini yaxshi bilamiz. Binobarin, “al-Hidoya” islom huquqshunosligining eng asosiy qo‘llanmalaridan. Bu asarda dastlabki fiqh olimlarining eng yirik asarlaridagi bosh g‘oya va mazmun jamlangan. Shu bois, ham Zahiriddin Muhammad Bobur bu to‘g‘rida yozar ekan “Yana sohibi Hidoya kim, Imom Abu Hanifa mazhabida “Hidoya”din mo‘tabarroq kitobi fiqh kam bo‘lg‘ay, Farg‘onaning Marg‘inon otliq viloyatidandur, ul ham doxili Movarounnahrdur”, deydi.

— Men bir marg‘ilonlik sifatida Marg‘inoniy haqida kamida uch-to‘rtta afsona-rivoyat bilaman, — deydi marg‘ilonlik Po‘lat Shermamatov. — Bularning haqiqatga qanchalik yaqin ekani, ochig‘i, muhim emas, gap ushbu ulug‘ zotning xalq xotirasida, millatning ma’naviy qatlamida shu tarzda qolgani. Keling, eng qizig‘ini aytib beray.

Rivoyatlarga ko‘ra, hazrat Burhoniddin Marg‘inoniy Go‘ri avval mahallasiga birinchi marta dafn etilgan. Sababi u zot sakta (miyaga qon yugurib vaqtincha behush yotish) kasali bilan og‘rigan ekan. U zotning shogirdlari, yoru birodarlari “Hazrat vafot etdilar”, deb ushbu joyga, Marg‘ilon shahrining eng markaziy joyiga dafn etadi. Burhoniddin Marg‘inoniyni qabriga qo‘yib ketayotganlarida yaqinlaridan biri uning vafot etganini eshitib, olisdan Marg‘ilon sari yo‘lga chiqadi. U yetib kelgani zahoti shogirdlariga qarata:

— Hazrat Burhoniddin bir kitobni boshlagan edi. Shul kitob yozilib bitdimi? Shuni bir ko‘rsam edi, — deydi. Aytishlaricha, bu kitob “Hidoya” bo‘lgan. Burhoniddin Marg‘inoniy kitobning birinchi muqovasida:

— Bismillahir rahmonir rahiym, kimdakim chorshanba kuni ish boshlasa, ana shu ish bitmasdan qolmas, — deb yozgan ekan. Savol bergan kishi mazkur jumlalarni o‘qib bo‘lgach, jonholatda:

— Bu zot hali hayot, chunki kitob yarmiga boribdi. Hazratimni qayerga dafn etdilaringiz, deb so‘rabdi. Shunda shogirdlaridan biri Burhoniddinning qabri qayerda ekanini aytadi. Biroq bu javobdan qoniqmagan o‘sha kishi:

— Yozilayotgan kitob va aytilgan hikmatga binoan bul zot hali hayot. Qabrga borib, xabar olamiz, — deydi.

Barchasi ortiga qaytib kelib, qabrni ochib qarasa, Burhoniddin tirik. Shunda bilibdilarki, vaqtinchalik behushlikdan forig‘ bo‘lgach, u zot yana o‘ziga kelgan ekan. O‘ziga kelgan hazrat Burhoniddin: “Meni olamdan o‘tdi, deb oila ahllarim, shogirdlarim janozamni o‘qib, qabrga qo‘yishibdi-da, buyog‘i endi Ollohdan”, deya Qur’on tilovati bilan mashg‘ul ekan. Uning tirikligini ko‘rgan shogirdlari xursandlikdan uvvos ko‘tarib, faryod qilgan ekan. Voqea shu tarzda yaxshilik bilan nihoyasiga yetganidan so‘ng ulug‘ zot “Hidoya”ni yozishda davom etgan. Ul zotning birinchi nurli qabri shu yerda bo‘lishi sababli bu maskan “Go‘ri avval” nomini olgan, deyishadi.

Adabiy turizm va Mirzakarim qutidor hovlisi

— “Burhoniddin Marg‘inoniy” majmuasi ertaklarda aytilib, kitoblarda yozilgan afsonaviy shaharni yodga soladi, to‘g‘rimi? — deydi “Burhoniddin Marg‘inoniy” ilmiy-ma’rifiy va turizm majmuasi — “Vodiy gavhari” turizm direksiyasi direktori Shuhrat Abdusalomov. — Majmuaning asosiy yo‘nalishlaridan biri, shubhasiz, buyuk alloma Burhoniddin Marg‘inoniyning boy ilmiy merosini o‘rganish va keng targ‘ib qilishdir. Shu bilan birga, hududda qadimiy hunarmandchilikni asrab-avaylash, ziyorat turizmini rivojlantirish va mahalliy hamda xorijiy sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutilgan. Ikki bosqichda amalga oshirilayotgan ushbu yirik loyiha yakuniga yetgach, u Farg‘ona vodiysining haqiqiy “tashrif qog‘ozi”ga aylanadi. Bu esa nafaqat Farg‘ona viloyati, balki butun mamlakat turizm salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi. Qutidorning hovlisini ko‘rdingizmi? Farg‘ona, Marg‘ilon deganda, beixtiyor “O‘tkan kunlar”ni, Otabek va Kumushni eslaymiz. Majmuani bunyod etishda shu jihat ham e’tiborga olingan. U yerda “Otabek va Kumush uyi” muzeyi tashkil etilgan. Uning devorlarida “O‘tkan kunlar” romani sahnalari jonlantirilib, adabiyot va tarixni uyg‘unlashtirgan noyob muhit yaratilgan. Bu juda katta qadam. Rasman endi adabiy turizmga yo‘l ochildi. Mana, masalan, Italiyaning Verona shahriga borgan har bitta turist Romeo va Julyettaning uyi hamda o‘sha mashhur balkonini ko‘rishga oshiqadi. Garchi bu personajlar shunchaki adabiy syujet va go‘zal afsona mahsuli bo‘lsa-da, butun dunyo sayyohlari u yerga chin dildan ishonib boradi, o‘sha allambalo devorlarga ehtirom ko‘rsatib, muhabbat maktublarini qoldiradi. Yoki Londondagi “221B Beyker-strit” manzilini olaylik. Ser Artur Konan Doyl o‘z asarlarida yaratgan Sherlok Xolms butunlay xayoliy qahramon bo‘lishiga qaramay, bugun ushbu kvartirada uning betartib xonasi, trubkasi hamda antiqa skripkasi aniq detallargacha jonlantirilgan uy-muzey faoliyat yuritmoqda. Millionlab insonlar bu uyni real tarixiy obidadek tomosha qiladi. Xo‘sh, nega endi bizda ham shunday uylar bo‘lmasligi kerak?!

Har bir millat ravnaqi uchun aql-zakovat bilan birga shijoatu matonat ham kerak. Bu borada ajdodlarning ibratli hayoti, ular qoldirgan asarlarni bilish juda muhim. Chunki tarix ulug‘lar so‘zi bilan aytganda, “o‘tganlar, yashayotganlar va hali tug‘ilmaganlar o‘rtasidagi ittifoq”dir.

“O‘tkan kunlar” shunday asar. Bu kitobda xalqning muhim tarixiy bosqichdagi ahvoli ruhiyasi, ma’naviy-e’tiqodiy qiyofasi va taxminiy kelajagi yaxlit holda o‘z aksini topgan. Ushbu

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

hovli, Kumush, qutidor bilan bog‘liq juda qiziqarli voqealar mavjud. Masalan, Sherkon Qodiriyning “O‘tkan kunlar”ga qaytib…” maqolasida “qutidor” atamasiga e’tibor qaratilgan. XIX asrda Qo‘qon xonligi davrida xalqdan, bozordan va boshqa tadbirlardan yig‘ib olinadigan soliq pullarini qutisida saqlab, so‘ng xon xazinasiga topshiradigan saroy amaldori qutidor deb atalgan.

Bu lavozimda, albatta, birovning haqqidan qo‘rqqan, omonatdor, halol shaxs ishlagan bo‘lishi kerak. Balki asardagi Mirzakarim qutidor tarixiy shaxs yoki nomi o‘zgartirilib, shu lavozimda ishlagan biror kishi bo‘lishi ham mumkin. Uning haqiqatan saroy amaldori bo‘lganini asar qahramoni Hasanalining “Amakingiz siz (Otabek) ni saroylarga ham olib tushar edilar”, degan so‘zidan ham bilib olsak bo‘ladi.

Kitobda qutidor mehmon kutish borasida xotiniga bir necha ko‘rsatma beradi va “Varaqi pishirib qo‘yingiz”, deydi. O‘quvchida “Nega aynan varaqi?” degan savol tug‘ilishi tabiiy. Aytishlaricha, ilgari Marg‘ilonda hurmatli mehmon sharafiga, albatta, varaqi pishirilib, dasturxonga tortilar ekan. Hozir uni “qo‘qon somsa”, deyishadi. Bundan anglash mumkinki, Qodiriy bir joy haqida yozganda o‘sha yerning urf-odatlarini ham juda sinchkovlik bilan o‘rgangan. Buni yozuvchining “Men materialni o‘rganish mahalida eng mayda narsalar (detallar) ga ham ahamiyat beraman”, degan ta’kididan ham anglash mumkin.

* * *

Tengsiz me’moriy go‘zallik. Imoratlarning ichi va tashi ganch hamda yog‘och bezaklar bilan bilan ziynatlangan, ayvonlarga tushirilgan nozik naqshlar turfa jilolanib kishini hayratga soladi. Mirzakarim qutidorning hovlisiga o‘tishim bilan atrofim o‘zgaradi. Ajabo, shundoq ro‘paramda kimxob kamzul, siyohrang ro‘mol o‘ragan tik qomatli xushro‘y qiz tabassum qiladi, mo‘jaz mesh og‘zini bog‘laydi. Qizki, o‘n yettiga to‘lgan yo to‘lmagan, sarvdek nozik qaddi-basti bir latif, hayo pardasiga o‘ralgan xushbichim yuzi bir toza, bodom qovoqlari ihotasidagi ko‘zlari bir ohuvash. Azalu abad me’mori bergan go‘zal husni malohati bilan nafaqat ushbu joyni, balki butun olamni munavvar aylaganini bilmas edi… Chavandozga o‘xshaydi. Nariroqda suvliq chaynab depsinayotgan ot shuniki bo‘lsa kerak. Naqshinkor yuganiga har turli munchoqlar, egar-jabdug‘iga duru sadaflar qadalgan, uzangisi kumushdan yasalgan ushbu ot qo‘sh qanotli ekanini keyin payqadim. Ha, bu Farg‘ona “samoviy” oti edi. Chavandozlik hadisini puxta egallagan qiz otga sakrab minadi. “Karvondan ortda qolmang!” deb bir nigoh tashlaydi-yu, ko‘kka irg‘ishlab kishnayotgan bedovi sag‘risiga qamchi uradi, shamol kabi yelib ketadi…

Tasavvurimda ushbu manzara naqshlanib qoladi. Yeru ko‘kni sabuhiy musiqa qamraydi. Da’vatkor navo qalamning uyg‘ongan ruhi va jur’ati bilan qovushadi. Qalam quvvatga enadi, ilhomga yetishadi, so‘ng uni to‘xtatib bo‘lmay

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-746.
29609 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Asliddin Abdurazzoqov
Musahhih: Sherzod Mahmudov
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98
E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05
Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.